

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKULTETI

IJTIMOIIY MADANIY FAOLIYAT YO‘NALISHI

XUSAINOVA MARG‘UBA ABDURAXMONOVA

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: JAMIYATDA SIYOSAT VA AXLOQ MUVOZANATI

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi B.X.Bo'ronov

NAMANGAN – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. JAMIYATDA SIYOSAT VA AXLOQ MUVOZANATINI O‘RGANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	10
1.1. Siyosat va axloq muvozanati, siyosiy axloq tushunchasi, mohiyati.....	10
1.2. Siyosat va axloqning munosabatiga muqobil qarashlar va ularning xususiyatlari.....	22
II-BOB. JAMIYATNI MODERNIZATSIYA QILISHDA SIYOSAT VA AXLOQ MUVOZANATINI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	32
2.1. Globallashuv jarayoni va siyosiy axloq, muammolari.....	32
2.2. Siyosiy hokimiyatni modernizatsiyalashning siyosiy axloq mexanizmlari.....	36
2.3. Siyosat va axloq muvozanatini ta'minlashdagi yutuqlar va muammolar.....	46
XULOSA.....	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	63

KIRISH

BMI mavzuning dolzarbligi. O‘zbekistonda demokratik jamiyat asoslari mustahkamlanib borgani sari milliy axloqiy qadriyatlarga tayanish, ularni zamonaviy mazmun-mohiyat bilan boyitish va rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj har qachongidan ham kuchaymoqda. Bu - fuqarolarning xoxish-irodasi, maqsad va intilishlari, adolatli, erkin, demokratik jamiyat barpo etish to‘g‘risidagi orzu-umidlarini ruyobga chiqarish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan zarurat va vazifadir. Ushbu vazifa millatning ko‘p ming yillik davlatchilik tarixi an‘analariga suyangan holda amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta I.A.Karimov bu xususda shunday deydi: “O‘zbekiston o‘zi uchun demokratik rivojlanish va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lini aniq-ravshan belgilab olgan va bu maqsad Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan.

Bu yo‘l demokratiya va erkinlikning umume'tirof etilgan va asosiy prinsiplariga tayanadi. Ayni paytda mamlakatimizning tarixiy, milliy va diniy xususiyatlariga va xalqimizning dunyoqarashiga asoslanadi”¹.

Ma'lumki, mustamlakachilik siyosatiga asoslangan sobiq tuzum mafkurasi asrlar davomida shakllangan madaniyatimizga, ma'naviyatimizga xalqimizning milliy axloqi va ruhiyatiga jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatgan edi. O'sha davrda mamlakatda soxta sotsialistik sinfiylikka asoslangan axloq normalari va u bilan bog‘liq qonunlar bir tomonlama siyosiy mafkura asosida shakllantirilgan. Milliylikka xos bo‘lgan axloqiy qadriyatlar ijtimoiy-ma'naviy hayotdan uzib tashlangan. Natijada jamiyat kommunistik axloq negizida qurilgan edi. Uning ma'muriy idorasi esa milliy-axloq qadriyatlarga zid siyosat olib bordi.

Ushbu mafkura esa sho‘ro tuzumi qaxramonlarining ideallashtirilgan yasama obrazlarini yaratish orqali kishilar ongida millatimiz uchun yot bo‘lgan axloqiy munosabatlarni shakllantirishga harakat qilgan. Ijtimoiy munosabatlarning barcha jabhalarida ilg‘orlik, oshkoralik, xalqchillik, insonparvarlik va adolat g‘oyalari

¹ Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари - олий қадрият. 14-жилд. -Т.: Ўзбекистон, 2006. - Б. 70

siyosatning balandparvoz, soxta shioriga aylantirilgan. Shu tariqa siyosat milliy va umuminsoniy axloq negizlaridan begonalashib borgan.

Boshqacha qilib aytganda, muammoning dolzarbligi **birinchidan**, Sharq mutafakkirlarining davlat va jamiyat boshqaruvi bilan bog‘liq bo‘lgan siyosat va axloqda doir ilmiy qarashlarini siyosat falsafasi nuqtai nazaridan o‘rganishning muhimligi bilan bog‘liq. Zero, ma'naviy merosimizni ijtimoiy hayot bilan muvofiqlashtirish asnosida siyosat va axloqni milliy qadriyatlar asosida uyg‘unlashtirish, kundalik turmushimizning ajralmas tarkibiy qismiga aylantirish zaruriyati ham oshib bormoqda. **Ikkinchidan**, bu jarayonda milliy davlatchilik borasidagi

boy merosimizga asoslangan mustaqillikni mustahkamlash, o‘zbek xalqi irodasi, orzu va intilishlarini ifoda etishning axloqiy mezonlarini belgilash, siyosiy sohada axloqiy prinsiplarni qaror toptirish, uning demokratik jamiyat qurish asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladigan ijtimoiy va siyosiy mezonlarini ishlab chiqish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, har bir millat o‘z tarixiy tajribasi, mentaliteti, madaniyati asosida mustaqil taraqqiyot yo‘lini belgilaydi. Binobarin, axloqiy qoidalar, tartiblar davlat xavfsizligining ta'minlanishi hamda o‘ziga xos va mos rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Bunday munosabat muayyan ijtimoiy-siyosiy muhitdagi odamlar jamoasining umume'tirof etilgan axloqiy qadriyatlarga amal qilishini ta'minlaydi. Millatda bunday tasavvurning shakllanishi erkinlik, adolat, ezgulik va axloq tushunchalarining o‘ziga xos tizimini yaratadi. Ya'ni, axloq jamiyat rivojining muhim omili sifatida davlat siyosatida o‘z ifodasini topadi. Siyosat va axloq bir-biri bilan uzviy bog‘liq hamda nisbatan mustaqil bo‘lgan ijtimoiy-ma'naviy hodisalar sifatida o‘z ta'sir maydoniga ega bo‘ladi. Bu ham siyosiy axloq tarzida demokratik jamiyat qurilishidagi muammolarning nazariy asoslarini o‘rganish zaruriyati ortib borayotganini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, bozor iqtisodiga asoslangan demokratik jamiyat tamoyilida rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatib kelmoqdaki, avvalambor, har qanday tizim inson manfaatiga hamda uning kamolotiga xizmat qilgandagina taraqqiyotga

yuz tutadi. Zero, jamiyat boshqaruvi asoslari siyosiy axloq qadriyatlari negizida o'z ifodasini topishi hayotiy zarurotdir. Jumladan, uning uslub va vositalarini joriy etishga, nazariy-metodologik jihatlarini ishlab chiqishga ehtiyoj oshayotganligi ham muammoning dolzarbligini belgilaydi.

BMI mavzusinin o'rganilish darajasi. Mustaqillik davrida milliy ma'naviy-madaniy merosimizni yangicha tafakkur asosida o'rganish va uni bevosita jamiyat boshqaruviga singdirishga alohida e'tibor berildi. Ma'lumki, milliy davlatchilikning nazariy asoslari, adolatli jamiyat k'urish va axloqiy jihatdan davlat va jamiyat boshqaruviga daxldor bo'lgan qarashlar qadimdan Sharq mutafakkirlarining asarlarida rivojlantirib kelingan. Ular bugun ham muhim ilmiy, nazariy, ma'naviy manbalar bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususan, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Nizomulmulk, Xoja Samandar Termiziy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab mutafakkirlarning² siyosiy qarashlarida jamiyat boshqaruvining axloq asoslariga alohida e'tibor berilgan.

Shuningdek, Movarounnahrda islom axloqi keng tarqala borishi bilan uning diniy, falsafiy, huquqiy asoslari yaratilgan. Shu tariqa IX-XX asrlarda Movarounnaxrda ilm-fan, madaniyat, islom falsafasi yuksak darajada taraqqiy etgan. Jumladan, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Moturudiy, Maxmud Zamaxshariy, Jaloliddin Rumiy kabi buyuk allomalar³ o'zlarining ilmiy va badiiy meroslari bilan jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shdilar. Ularning borliq mavjudlik, insonparvarlik, adolat, imon, insof, diyonat, o'zaro mehr-oqibat, vijdon sohasidagi diniy-falsafiy qarashlari, ayniqsa, xukmdorlarga bergan o'gitlari inson, jamiyat, davlat o'rtasidagi munosabatlarning siyosiy axloqiy asoslari rivojida muhim ahamiyat kasb etgan.

Ajdodlarimizning ijtimoiy tafakkuri rivojiga e'tibor beradigan bo'lsak, siyosat va axloqda doir madaniy merosimiz bunyodkor g'oyalar sifatida

² Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. -T.: Xalq merosi. 1993; Termiziy Xoja Samandar. Dastur ul-muluk: Podshohlariga q'llanma. Tarjima, s'z bo'shi, izoxlar muallifi J.Эсонов. -T.: Адабиёт ва санъат. 1997; Низомулмулк. Сиёсатнома. -T.: Адолат. 1997; Темур. Темур тузуклари. -T.: Адабиёт ва санъат, 1996;

shakllantirilganligini kuzatamiz. Bunday ijtimoiy rivojlanish kishilik jamiyatida insonning ma'naviy yuksalishi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Ya'ni, O'rta Osiyo xalqlarining hayotida XVIII asr oxiri va XX asr boshlarida uzoq yillik ruhiy tanazzulidan so'ng ma'naviy qadriyatlarning yangi to'lqini paydo bo'lgan. Ular adabiy, badiiy, diniy ko'rinishda o'z davrining ijtimoiy-siyosiy voqyeligida in'ikos etgan. Ana shu davrga xos ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni anglash milliy davlatchilikdagi axloqiy muammolar tarixi va mohiyati haqida ma'lum darajada xulosa qilish imkoniyatini beradi. Buni Ogahiy, Avaz O'tar, Komil Xorazmiy, Bedil, Fuzuliy, Axmad Donish, Mukimiy, Furqat, Mulla Olim Mahdum Xoji singari mutafakkirlar asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qarashlarda kuzatish mumkin. Bu qarashlar O'rta Osiyo tarixida davlat va jamiyat boshqaruvining qay darajada axloqiy qadriyatlarga asoslanganligini, ijtimoiy ixtiloflarning kelib chiqishi hamda yurtni mustamlakachilik holatiga olib kelgan sabablarni aniqlashda, undan to'g'ri saboq va xulosalar chiqarishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

O'rta Osiyoda mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash va uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati, ayniqsa, Avloniy, Bexbudiy, Munavvar Qori, Fitrat va boshqa ko'plab vatanparvar-ma'rifatchilarning asarlarida aks etgan⁴. Mavjud adabiyotlar va manbalar tahlilidan xulosa qilish mumkinki, tarixiy siyosiy jarayonlar bir-biriga o'xshash va ko'p hollarda takrorlanib kelgan. Millatning qismatiga tushgan tarixiy fojialarning sababi, avvalo, jamiyatning milliy-axloqiy qadriyatlardan uzilib kolishi bilan izohlanadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning milliy davlatchilik tarixini tadqiq etish, jamiyat va davlat boshqaruvi an'analari hamda tajribalarini o'rganish, ayni paytda, xalqimiz tarixi bilan bog'liq bo'lgan fojialar oqibatidan saboq chiqarishga qaratilgan asarlar yaratildiki, ular demokratik, dunyoviy jamiyat qurish jarayonida o'zlikni anglash tuyg'usi va milliy qadriyatlarimizni ijtimoiy turmushimizning

³ ал-Бухорий. Хадис. -Т.: Қомуслар бош тахририяти. 1994; ат-Термизий. Хадислар //Шарк юлдизи. 1990, -№ 9;

barcha jabhalariga singdirishda nazariy dastur bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Jumladan, Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarining ustuvor g'oyasi milliy davlatchiligimizning ma'naviy-axloqiy negizlarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan harakterlanadi. Ya'ni, davlatimiz rahbari barcha islohotlar mezonini adolat, tenglik, insonparvarlik kabi qadriyatlar tashkil etishini alohida uqtirib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida A.Azizxo'jaev, A.Begmatov, M.Bekmurodov, T.Jo'raev, R.Jumaev, M.Jakbarov, N.Komilov, Q.Nazarov, S.Otamurodov, Sh.Paxriddinov, I.Soifnazarov, O.Xusanov, A. Qodirov, M.Qirg'izboev, I.Ergashev, N.Umarova kabi olimlarimiz tomonidan O'zbekistonda demokratik islohotlarning ma'naviy va axloqiy asoslarini chuqurlashtirishga qaratilgan qator ilmiy monografiyalar, maqolalar va publitsistik asarlar yaratildi⁵. Shuningdek, siyosiy fanlarning siyosiy institutlar va jarayonlar ixtisosligi bo'yicha O.Jumaev, B.Iminov, U.Idirov, A.Xolbekovlar tomonidan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya kilingan⁶. Ammo O'zbekistonda siyosat va axloq muvozanati muammosi alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan. Mavjud muammolar ushbu mavzuni tanlashda tegishli nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga asos beradi.

BMIning maqsadi siyosat va axloq muvozanatini o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

BMI o'z navbatida quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi.

- siyosat va siyosiy axloq muvozanati tushunchasiga ta'rif berish;
- siyosiy axloq mohiyatini tahlil etish;
- jamiyatda siyosat va axloq to'g'risidagi ta'limotlarning

shakllanishini, manbalarini o'rganish;

⁴ Авлоний Абдулла. Танланган асарлар 1-2 жилдлар. -Т.: Маънавият, 1998; Бехбудий. Танланган асарлар. -Т.: Маънавият, 1999; Мунаввар Қори. Хотираларим. -Т.: Шарқ, 2001; Фитрат. Танланган асарлар. -Т.: Маънавият, 2000.

⁵ Азизхўжаев А. Мустақиллик: изтироблар, курашлар, қувончлар. -Т.: Академия, 2001; Бекмуродов. М. Ўзбек менталитети. //Хуррият, 2002; Жураев Т. Минтакавий можаролар ва сиёсий ечимлар. Политология. -Т.: 2002; Жакбаров. М. Комил инсон ғояси.-Т.: Янги аср авлоди, 2002; Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. -Т.: Ёзувчи, 1996; Умарова Н. Глобаллашув шароитида ахборот хуружларига қарши кураш.-Т.: Академия, 2004.

⁶ Жумаев О. Ўзбекистонда миллий давлатчиликнинг ривожланиш хусусиятлари. Сиёсий фанлар номзоди дисс. автореф.-Т.: 2001; Идилов У. Ҳозирги замон демократиялашув жараёнларининг концептуал асослари ва мустақил Ўзбекистон тажрибаси. Сиёсий. фанлар д-ри. автореф.-Т.: 2006.

- siyosat va axloq, munosabatiga muk^obil qarashlar va ularning xususiyatlarini tahlil etish;
- siyosiy axloqning milliy negizlarini va uni rivojlantirish omillarini tadqiq qilish;
- jamiyat hayotida siyosat va axloqning muvofiqlik darajasi, mezonlari va uning namoyon bo'lish xususiyatini tahlil etish;
- siyosiy hokimiyat va siyosiy axloq, munosabati mexanizmlarini ilmiy o'rganish;
- milliy ruhiyatning siyosatga ta'siri va uning namoyon bo'lish jarayonlarini tahlildan o'tkazish;
- jamiyatda siyosat va axloq muvozanatini ta'minlash omillarini tadqiq etish hamda ilmiy, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

BMIning yangiligi. Siyosat va siyosiy axloq muvozanati bilan bog'liq muammolar, uning o'zaro munosabati, rivojlanish tendensiyalari siyosat falsafasi nuqtai nazaridan asoslangan;

- “siyosat va axloq muvozanati”, “siyosiy axloq” tushunchalarining mohiyati ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazaridan o'rganilgan;
- siyosat va axloq munosabatiga doir muqobil qarashlar va ularning xususiyatlari tahlil etilgan;
- siyosiy axloq muvozanatini ta'minlashda milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarning o'rni ochib berilgan;
- milliy davlatchilik tajribalar, ijtimoiy tanazzul va yuksalishga olib kelgan siyosiy jarayonlar siyosiy axloq nuqtai nazaridan yoritilgan;
- milliy ruhiyatning siyosatga ta'siri va namoyon bo'lish jarayonlari o'rganilgan;
- siyosat va axloq munosabatining jamiyat va shaxs faoliyatiga ta'siri asoslangan;
- siyosiy hokimiyatni modernizatsiyalashning siyosiy-axloqiy mezonlari, ularni ta'minlovchi mexanizmlar, tashkiliy omillarning mohiyati ochib berilgan;

- global taraqqiyotning axloqiy muammolari o'rganilgan va ularning siyosiy-falsafiy tahlili amalga oshirilgan;

- siyosiy axloqning nazariy hamda amaliy asoslarini rivojlantirishga qaratilgan tahlil, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

BMI natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Jamiyat taraqqiyoti bevosita millatning salohiyati bilan belgilanadi. Bunda xalqning milliy qadriyatlarga amal qilib yashash madaniyati davlat boshqaruvining axloqiy asoslarini mustahkamlaydi hamda taraqqiyot mezonini bo'lib xizmat qiladi. Siyosatning axloqiy qadriyatlarga asoslanishi jamiyatda adolat g'oyalarining qaror topishi imkoniyatlarini yaratadi. Shuning uchun ham ijtimoiy munosabatlarning barcha yo'nalishida adolat va haqiqat g'oyalarining qaror topishiga qaratilgan tahliliy xulosalar muhim nazariy ahamiyatga ega.

BMI natijalaridan jamiyat boshqaruvida demokratik jarayonlarni, siyosiy institutlar faoliyatini o'rganishda foydalanish mumkin. Ayniqsa, O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida erishilgan yutuklar hamda vujudga kelayotgan muammolarning ob'ektiv va sub'ektiv sabablarini aniqlash, belgilangan isloxlarning amaliyotga tatbigi darajasini tahlil etib borish imkonini beradi. Jamiyatda siyosiy va axloqiy qadriyatlarning uyg'unlashuvi fuqaro jamiyat-davlat o'rtasidagi o'zaro ishonch va umumiy maqsad yo'lidagi intilishlarini mustahkamlaydi.

BMIning metodologik va nazariy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida bayon etilgan siyosat va axloq munosabatiga doir ilmiy-nazariy xulosalar, jamiyatimiz hayotini demokratlashtirishda siyosiy axloqning o'ziga xos milliy xususiyatlarining namoyon bo'lishi kabi konsepsiyalar tashkil etadi.

BMIning tuzilishi va xajmi. BMI Kirish, 2 bob, 5 paragraf, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va xulosadan iborat.

BIRINCHI BOB. JAMIYATDA SIYOSAT VA AXLOQ MUVOZANATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Siyosat va axloq muvozanati, siyosiy axloq tushunchasi, mexoriyati

Kishilik jamiyatida maqsad, manfaatlarning turli-tumanligi «siyosat»ga nisbatan azaldan turli yondashuv va ta'riflarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Ayrim qarashlarda siyosatni qallob va razil odamlarning nopok mashg'uloti deb qarasalar, boshqalar esa, fozil fazilatlariga ega bo'lgan yuksak axloqli odamlarning olijanob vazifalari deb hisoblaydilar. Ushbu tushunchalarning turliligiga sabab, siyosat ifodasi inson tabiati bilan bog'liq hodisa ekanligidir. Shu sababdan siyosat qoidalari ham o'zgaruvchan xususiyatlarga ega.

Bunday o'zgaruvchanlik siyosat tabiatida ba'zan oshkora, ba'zan hufiyona manfaatlar mavjudligi bilan belgilanadi. Ammo shunga qaramasdan qadimgi Gretsiya mutaffakirlari davlat va jamiyat ishlarini «siyosat» deb, siyosatni esa, «odamlarni boshqarish san'ati» sifatida ta'riflaydilar. Masalan, Aristotelning qarashlarida siyosat umumfarovonlik va adolatga erishish, avvalo, axloqiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etmog'i muhimligi masalalari ochib beriladi. Adolat faqat siyosiy hayotda o'z o'rniga ega bo'lishi mumkin deb qaraydi⁷.

Aristotel axloq to'g'risidagi qarashlarini rivojlantirib, shunday deydi: «Etika-axloq muammolari haqida gapirishdan avval biz axloq nimaga taalluqli ekanligini aniqlab olishimiz kerak. Gapning lo'ndasini aytsak, siyosat axloqning tarkibiy qismidir. Chindan ham muayyan axloqiy fazilatlariga ega bo'lmagan, ya'ni munosib shaxs bo'lmagan odam siyosiy faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Munosib odam bo'lmoq axloqiy fazilatlar egasi - fozil bo'lmoq, demakdir. Zero, ijtimoiy va siyosiy hayotda faoliyat yuritmoqchi bo'lgan odam axloqan fazilatli odam bo'lmog'i kerak. Xullas, siyosat axloqning tarkibiy qismidir. Shuning uchun axloqni bemalol siyosat deb atash mumkin»⁸. Darhaqiqat, hamma narsaning asosida axloq bo'ladi va siyosat ham axloqiy qarashlar orqali shakllangan

⁷ Алимардонов Т. Жамиятда сиёсат ва ахлоқ мувозанати муаммолари. Сиёсий. фанлар д-ри. автореф.-Т.: 2006. –Б.11

yoʻnalish hisoblanadi. Lekin, bugungi kunda siyosat funksiyasi shunchalik kengayib ketganki, uning turli xususiyatlarni oʻrganish asosida siyosat va axloqning uygʻunlashuvi jarayonlarini aniqlashga harakat qilamiz.

Siyosatga nisbatan axloqiy taʼlimotlar Sharqda Abu Nasr Forobiy⁹ ijodida ham rivojlantirilgan. U siyosatning paydo boʻlishi - kishilik jamiyati qonuniyatlaridan kelib chiqqan ehtiyoj deb, siyosatda axloqiy munosabatlarning muvozanatini taʼminlashga qaratilgan nazariy gʻoyalarni ilgari suradi. Ammo siyosat va uning axloqiy mohiyati toʻgʻrisida shu davrgacha koʻplab taʼlimotlar rivojlantirilganligiga qaramasdan, har bir davrning yangi siyosati vujudga keltiriladiki, ming yillik qadriyatlar bilan omuxta boʻlgan axloq siyosatda uz ifodasini har doim ham topa olmagan.

Davlat va jamiyat qurilishi inson tafakkurining mahsuli sifatida oʻz rivojida siyosatning turli darajalarda oʻzgarishiga olib kelgan. Lekin uning mohiyati oʻzgargan emas. Chunki asriy muammoning zamirida aslida, siyosat bilan axloq oʻrtasidagi ziddiyat yotadi. Ya'ni, siyosatni - axloqda qarshi qoʻyish, ayrim ijtimoiy guruhlar manfaatlariga yoʻnaltirishga qaratilgan zoʻravonlik unga nisbatan ikki xil yondashuvning vujudga kelishiga sabab boʻlgan.

Shunday ekan, siyosat va axloq uygʻunligiga qanday erishish mumkin? Manfaatlar bilan qadriyatlar qachon va qanday sharoitda muvofiqlashadi? Unga erishishning siyosiy axloq uslublari nimalardan iborat? Xalqning xoxish irodasini, jamiyatning turli xil manfaatlarini davlat oʻz boshqaruvida qanday vosita va murvatlar asosida tashkil etadi? Afsuski, bunday savollarning asriy - abadiyligi davlatchilik tarixi hamda kishilik jamiyati hayotida doimo bax.s - munozaralarga sabab boʻlib kelgan va bugungi kunda ham oʻzining dolzarbligini yukotgan emas.

Mazkur muammolarning tushunchalari va mohiyatini tahlil etish orqali axloq va siyosat tabiatidagi mazmunni ochishga harakat kilamiz. Jumladan, axloq - kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning oʻziga xos usuli, u yoki bu jamiyatda qabul kilingan va rioya kilinishi lozim boʻlgan tartib, odob, oʻzaro

⁸ Ахлоқи кабир. - Т.: Янги аср авлоди, 2004. – Б. 96.

⁹ Қаранг. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. -Т.: Халқ мероси, 1994.

munosabat hamda mulokotning qonun-qoidalari, mezonlari yigindisi¹. Jamiyat siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy voqeyeliklarini inson xulq-atvori, xatti-harakati aniqrog'i, umume'tirof etilgan milliy-ma'naviy va zamonaviy normalarga mos kelishini ta'minlovchi va belgilovchi ma'naviy mezondir.

O'z mohiyatiga ko'ra axloq - kishilarning bir-biriga, oilaga, Vatanga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlar yigindisidir. Axloq har bir kishining xulqini aks ettiradi. Axloqning yuksak darajada bo'lishi jamiyat rivojiga ijobiy ta'sir qiladi yoki aksincha, axloqsizlik jamiyat rivojini izdan chiqaradi. Axloqsiz shaxsning istiqboli bo'lmaganidek, axloqsiz jamiyatning ham istiqboli bo'lmaydi. Ayni paytda, axloq jamiyatning barcha jabhalariga kirib borishi va unga jamiyat a'zolarining amal qilishi ijtimoiy adolat munosabatlarini vujudga keltiradi. Ammo, xdr qanday holatda shaxsning ichki axloqiy tarbiyasi xal kiluvchi rol uynaydi.

Ushbu munozara xususida Kant tomonidan aytilgan fikrlar mazkur muammoni oydinlashtirishga yordam beradi. Jumladan, u shunday deydi: «Faqat har bir insonning uzi uchun uzi axloqiy k^nun urnata olish kobiliyati negizida. Boshqacha aytganda, har bir inson uz axloqiy k^nunining ijodkori hisoblanadi. Dar bir individ axloqiy jihatdan mustaqil. Bu aytilganlar odamlarda axloqiy k^nunlar belgilash erki borlig'i va ular shunday qilish uchun yetarli aqlga ega ekanini ko'rsatadi. Erkin va oqil shaxslar faqatgina o'zlari uchun ma'qul bo'lgan qonunlarni o'rnata olmasliklarini tushunadilar»¹⁰. Darhaqiqat, Kant masalaning falsafiy-ijtimoiy negizlariga kirib boradiki, insonning ongsiz va ongli harakatlari mohiyati ochib beriladi. Masalan, vatanparvarlikning axloqiy mezonlari, darajasini belgilab bo'ladimi?! Yoki vatanparvarlik qilmagani uchun javobgarlikka tortish mumkinmi?! Shuning uchun axloqiy jihatdan inson mustaqil. Faqat yaratganning oldida hisobot beradi. Albatta, agar inson xoinlik qilsa, u javobgarlikka tortiladi. Lekin, masala mohiyatan ikki xil narsa.

Axloqda nisbatan Yum shunday ta'rif beradi: «Axloq tushunchasi barcha insoniyatda qandaydir umumiy hissiyot tug'dirib, u bitta ob'ektda umumiylikni

ma'qullaydi va har bir kishini yoki ko'pchilikni ma'lum xulosaga olib kelib, bir-biriga itoat etishga qodir»¹¹. Ushbu ta'rif yuqorida keltirilgan Aristotelning qarashlariga to'g'ri keladi. Siyosat axloqiy qadriyatlarga asoslansa, ko'pchilikni umumiy harakatga, itoatga olib keladi. Shuning uchun axloqda amal qilish shaxs va millatning ma'naviy dunyosi va salohiyat darajasi bilan bog'liq hodisa sifatida qaraladi.

Axloq va uning ijtimoiy mohiyati to'g'risida Abdulla Avloniy shunday deydi: «Insonlarni yaxshilikga chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg'on kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanin, janobi Dak na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur»¹². Ko'rinib turibdiki, A.Avloniy axloqda nisbatan nafaqat ilmiy ta'rif beradi, balki uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ochadi. «Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligi» bevosita siyosiy faoliyatda ham o'z ifodasini namoyon qiladi. Chunki, xulq-atvor inson faoliyati orqali ijtimoiy hayotga u yoki bu tarzda ta'sir o'tkazadi.

Ammo, axloqda nisbatan turli qarashlar mavjud bo'lganligini ta'kidlamok lozim. Masalan, Nitsshening fikricha, - «Axloqiylik asrlar osha inson erkin ruhini so'ndirib kelgan. Dinda ham Olloh hukmron sifatida namoyon bo'ladi. U uz «qullari, xizmatkorlari», ularning taqdirlari, hayotlari ustidan o'z hukmini o'tkazadi. Har bir inson, diniy nuqtai nazardan, xudoning qulidir»¹³ deydi. Uning ta'kidlashicha, har bir inson iroda erkinligiga ega. Erkin iroda eng yuksak qadriyatdir deb hisoblaydi.

Nitssheni xristianlik dinidagi insonning taqdir oldidagi itoatkorligi, bo'ysunuvchanligi masalasi qoniqtirmaydi. Chunki, u insonning Olloh oldidagi itoatguyligi manfaatli munosabatlarni yuzaga keltiradi, dindorlar Ollohga sajda qilishlari, qiyinchiliklarga ko'nikishlari evaziga undan gunohlaridan kechishini

¹⁰ Фалсафа тарихи. -Т.: Шарк, 2002. -Б. 430.

¹¹ Янги ва энг янги давр Ғарбий Европа фалсафаси. -Т.: Шарк, 2002. -Б. 34.

¹² Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. -Т.: Маънавият. 1998. -Б. 34.

¹³ Янги ва энг янги Ғарбий Европа фалсафаси. -Т.: Шарк, 2002. Б.196-197.

so'raydilar, uzoq yilgi e'tiqodlari evaziga undan mukofot kutadilar, ushbu manfaatli munosabat xristianlik axloqi asosida yotadi, degan qarashlarga asoslanadi. Bunday qarashlar «amoralizm», «immoralizm» kabi g'oyalarda o'z ifodasini topgan. Ya'ni bu borada axloqiy qadriyatlarni inkor etish yo'liga kirgan oqimlar ham vujudga keladi¹⁴.

Axloq siyosatdan farqli o'laroq, ob'ektiv mavjud hodisa, siyosat ijtimoiy jarayonlar xrsilasiga, shaxslar ishtirokiga muvofiq ijobiy yoki salbiy tarzda shakllanadi va rivojlanadi. Shu o'rinda ayrim jaxrn mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti tajribalariga nazar soladigan bo'lsak, milliy axloqiy qadriyatlar ijtimoiy axloq darajasiga kutarila olmaganligini kuzatamiz. Natijada davlat boshqaruvi milliy-axloqiy tamoyillarga nomuvofiq ravishda shakllanishiga, oxir-oqibatda mamlakatning parokanda bo'lishiga olib kelgan.

Siyosat jamiyatda davlat va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan hodisadir. Siyosat jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olishi bilan birga, uning asoslari iqtisod, ma'naviyat bilan uzviy bog'liq holda tahlil etiladi. Shu ma'noda «siyosat» jamiyat siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotining umumlashgan, integrallashgan ifodasi hisoblanadi¹⁵.

Siyosat axloqdan farqli o'laroq aniq me'yorlar va qonunlar asosida shakllanadi. Unga amal qilmaslik ma'lum ma'muriy choralarning qurilishiga olib keladi. Siyosat ma'lum maqsadga, natijalarga erishishi uchun yo'naltiriladi. Axloq esa, harakat yoki faoliyatning ob'ektiv mohiyatini belgilaydi. Bunda natijalardan ko'ra, natijaga qaratilgan faoliyatning vositalari, maqsadlari, sabablariga e'tibor qaratiladi. Ayni paytda, axloq ko'proq individual xususiyatlarga ega bo'lsa, siyosat ommaviy xususiyatga ega. Siyosat mavjud voqyeiylik bilan bog'liq bo'lib, real holatning dalillarini maqsadga erishish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Axloq aniq voqyelikka nisbatan munosabatda universal hisoblanadi.

¹⁴ Алимардонов Т. Жамиятда сиёсат ва ахлоқ мувоzanати муаммолари. Сиёсий. фанлар д-ри. автореф.-Т.: 2006. –Б.12

¹⁵ Отамуродов С., Эргашев И., Акрмов Ш., Қодиров А. Политология. Ўқув қўлланма. -Т.: Ўзбекистон, 1998. –Б.41

Axloq ko'proq insonning tarbiyatiga - vijdoniga bog'liq hodisa. Unga rioya qilmaganlarga nisbatan ommaviy qoralash, jamoat izzasi qo'llaniladi¹⁶. Siyosiy axloq esa, kishilarning bir-biriga, oilaga, Vatanga, jamiyatga bo'lgan faoliyatlarida namoyon bo'ladigan munosabatlar hosilasining amaliy ifodasi. Axloqda nisbatan siyosat majburiylik va ma'lum huquqiy mas'uliyat kasb etadi. Axloq har bir kishining xulqini ko'rsatsa, siyosat ushbu xulqning qonuniyligini, ya'ni jamiyat manfaatlariga mosligini belgilaydi. Axloqiy yuksaklik jamiyatda siyosiy munosabatlarning sog'lomligini ta'minlash orqali davlat va jamiyat boshqaruvini rivojlantirishga xizmat vklada. Ya'ni, axloqning ma'naviy qadriyatlar orqali ijtimoiylashuvi siyosiy axloqni tashkil etadi hamda boshqaruvning umummanfaat yo'lidagi maqsadlarini tashkil etishda ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Siyosiy axloq siyosiy hokimiyat faoliyatining huquqiy asoslarida namoyon bo'lib, uning legitemligini tashkil etadi. Hokimiyatning legitemligi fuqaro erkinligi va huquqini ta'minlashni bosh maqsad qilib olgan davlatga nisbatan qo'llaniladi. Ayni paytda, hokimiyat tarafidan jamiyat ne'matlarini adolat va tenglik tamoyillari asosida taqsimoti, amalga oshiruvchi vositalarining samaradorligiga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy institutlar faoliyatining nechog'li darajada milliy axloq qadriyatlar negizida k^urilganligi, uning amaliy ifodasi, siyosiy hokimiyat bilan xalqning ishonchli hamkorligi masalalari siyosiy axloq tarkibini tashkil etadi.

Siyosiy axloq jamiyatda qonunlarning insonparvarligini ta'minlovchi ma'naviy omil sifatida namoyon bo'ladi. Siyosat axloqni shakllantirish uchun ijtimoiy faoliyatning va unga ta'sir etuvchi omillar axloqi aniq^lash lozim bo'ladi. Siyosat axlohiy bo'lishi uchun muammolar sababini emas, oqibatini inobatga olish zarur. Axloq, siyosat va siyosiy faoliyat uchun qonunga aylanganda siyosiy axloq samardorligi va ta'siri ortadi. Siyosiy axloqng eng muhim va umumiy funksiyalaridan biri ijtimoiy tengsizlik muammolarini aniqlash va shu muammolar bo'yicha tavsiyalar tayyorlash kabi vazifalarni qamrab oladi.

¹⁶ Давлат ва ҳуқуқ асослари изоҳли луғат. -Т.: Ўқитувчи, 1996. -Б. 8.

Siyosiy axloq kategoriyalari siyosiy institutlar faoliyatiga ma'naviy kuch sifatida ta'sir qilib boradi. Ammo masalaning yana boshqa murakkab jihatlari mavjud. Masalan, «Yaxshilik», «Ezgulik», «Vijdon», «Oriyat» «Uyat» va boshqa shu kabi tushunchalar axloqiy kategoriyalarga kiradi. «Demokratiya», «Tenglik», «Adolat», «Inson huquqi», «Ozodlik», «Erkinlik», «Mustaqillik» tushunchalari esa siyosiy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi. Muammo shundaki, insonda yaxshilik, ezgulik, oriyat kabi fazilatlar bo'lishi mumkin. Ammo, bunday fazilatlar ko'proq individual xususiyatga ega bo'ladi. Ya'ni, jamiyat, davlat, millat masalalari bilan bog'liq siyosiy jarayonlarda o'z ifodasini topmasligi ham mumkin. Aniqrog'i insonda siyosiy darajada jur'at yetishmaydi. Xuddi shu tartibda jamiyat va davlat faoliyatini baholash mumkin. Davlat rasmiy qarorlarida adolat va tenglik to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surishi mumkin, lekin, uning ijrosini ta'minlashga qaratilgan murvatlarning tashkil etilmaganligi yoki siyosiy ta'sir samaradorligining pastligi jamiyatda axloqsiz siyosiy holatning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Axloqsiz siyosat ko'rinishlari korrupsiya, inson erki va huquqiga tajovuz qilish, ijtimoiy munosabatlarda adolatsizlik kabi holatlarning kuchayishida namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda mazkur masalalarning ayrim jihatlari oydinlashtirish talab etiladi. Jumladan, siyosiy fanlarda siyosiy axloq, siyosiy etika, siyosiy madaniyat tushunchalarining uyg'un va alohidalik xususiyatlari farqini ajratish lozim. Etika grekcha suz bo'lib, odat, ko'nikma, hatti-harakat ma'nolarini beradi. Etika axloqdan farqli o'laroq mas'uliyat yuklamaydi. U yoki bu holatda inson o'zini qanday tutishi to'g'risida maslahat beradi. Etika eng yaxshi odat, hatti-harakat turlarini o'rgatadi. Siyosiy etika esa, konkret siyosiy arbob faoliyatiga yoki ma'lum siyosiy islohotlarni amalga oshirishdagi yondashuvlariga, vosita va uslublarning qo'llanishiga hamda tanlanishiga nisbatan ishlatiladi. Masalan, ular siyosiy qarorlar qabul qilish etikasi, deputat etikasi, rahbar shaxs etikasi tushunchalarini qamrab oladi. Ya'ni bizda siyosiy etika tushunchasi odob tushunchasiga to'g'ri kelmoqda. Undan chiqdi, arbob yoki rahbar odobi bilan siyosiy jarayonlarning axloqiy qadriyatlar asosida boshqarishi lozimligi to'g'risidagi mantiqiy xulosalarni

va ilmiy tasniflarni keltirib chiqaradi. Siyosiy axloq siyosiy etikani o'rganuvchi muhim fanlardan hisoblanadi.

Siyosiy axloq siyosiy madaniyatga nisbatan universal hisoblanadi. Siyosiy madaniyat bu - siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyat madaniyatidir. Shuningdek, siyosiy institutlarning harakteri, faoliyat tartibi va jamiyat siyosiy hayoti barcha jabhalarining sivilizatsiyalashganligi darajasidir¹⁷. Modomiki, shunday ekan, siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyat madaniyati axloqiy qadriyatlar negizida shakllanadi va so'ngra siyosiy madaniyat darajasiga ko'tariladi. Agar siyosiy axloq sub'ekt va ob'ektga nisbatan umumiy xususiyatga ega bo'lsa, siyosiy madaniyat konkret hodisa. Ya'ni, mavjud siyosatni fuqarolar qanday tushunadilar va shu tushunchalar asosida amalda unga qanday rioya etadilar. Boshqacha qilib aytganda, siyosat axloq tamoyillaridan chekinishi mumkin, lekin, jamiyatda fuqarolar siyosiy madaniyati yuqori bo'lsa, bunday siyosatni o'zgartirishga, amaliy faoliyatlariga moslashtirishga erishadilar. Bu siyosiy madaniyatning asosiy va muhim belgilaridan bo'lib hisoblanadi.

Siyosiy axloq falsafa va ijtimoiy fanlarga xos bo'lgan uslublar orqali o'rganiladi. Jumladan, siyosatning milliyligi, umuminsoniy qadriyatlarga mosligi, voqyea va hodisalarning tarixiyli, konkretli, mantiqiyli, munosabatlarning realligi, ob'ektivli, izchilligi, bog'liqligi siyosiy axloq kategoriyasini o'rganuvchi, aniqllovchi va belgilovchi uslub bo'lib hisoblanadi. Shu uslub asosida siyosiy jarayonlarning siyosiy axloq kategoriyasiga mosligi masalalari to'g'risida ilmiy xulosalar, tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Inson borlig'i, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar hosilasi bevosita axloqda namoyon bo'ladi. Axloq oddiylikdan murakkablikka qarab o'sib borgan. Bunday tadrijiylik inson hayotida ma'naviy va moddiylikka bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi bilan belgilangan. Ya'ni, insonning o'z borlig'ini anglashi uning ma'naviy ehtiyojlarini kengaytirgan bo'lsa, mavjudligini saqlash hamda kafolatlash ehtiyoji esa, insonning moddiy olamini rivojlantirgan. Shu tarifa inson bu talablarning uyg'unligini axloqiy mezon bilan ta'minlashga harakat kalgan. Ammo,

ehtiyojlar usishi bilan axloqiy qadriyatlar ham o'zgarib kelgan. Bu borada Aristotel shunday deydi: «Tabiat insonga intellektual va axloqiy kuchni bergan, ammo u, bu quroldan teskari tomonga ham foydalanishi mumkin. Shuning uchun axloqiy kafolatlarsiz bo'lgan inson eng mo'rtad va yovvoyi mavjudotdir»¹⁷.

Ko'rib turganimizdek, siyosiy axloq munosabatlarini tashkil etish nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi. Bosh masala, jamiyatda fuqarolarning qonunlar asosida yashash rag'batini o'stirish uchun qonunlar mukammal bo'lishi, ayni paytda, uning ijrosini tashkil etuvchi mexanizmlarni joriy etish lozim. Bunda insonning ma'naviy komillikka intilishi barobarida o'z faoliyatini siyosiy axloq mezonlari asosida qurish va unga amal qilish rag'batini ortib boradi. Munosabatlar tizimlashtirilmagan va huquqiy jihatdan kafolatlanmagan oddiy holatda manfaatlarni qondirish ilinjida yurgan kishilar uz istaklarini jamiyatda g'ayriaxloqiy harakatlar bilan qondirishga majbur bo'ladilar.

Tarixiy taraqqiyot tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, insonlar moddiy ehtiyojlarini uz ma'naviy dunyosi bilan uyg'unlashtirgandagina jamiyatda axloqiy qadriyatlar qaror topib boradi. Ammo, muammo shundaki, axloqiy qadriyatlarni siyosiy maqsadlarga buysundirish jamiyatda ma'lum guruh yoki ma'lum mafkura manfaatiga o'tib ketishiga olib kelishi mumkin. Bunday yondashuvlar «axloqiy» jihatdan mafkuralashgan totalitar davlatni vujudga keltirgan. Shuning uchun ham siyosat va axloq huquqiy jihatdan kafolatlangan muvozanatda bo'lishi lozim. Siyosatning axloqi shu komponentlar uyg'unligi asosida vujudga keladi. Ma'naviyatsiz huquq yoki ma'naviyatsiz siyosat axloqda zid keladi.

Shunday qilib aytish mumkinki, har qanday davlat, jamiyatning tarixiy va milliy axloqiy qadriyatlari asosida rivojlanishi uning barqaror istiqbolini ta'minlashga xizmat qiladi. Davlatchilikning tarixiy tajribalaridan ma'lumki, bunday uyg'unlik jamiyatni o'z taraqqiyotida yangi bosqichlarga ko'taradi, rivojlanish omillarini kengaytiradi. Ma'naviy tadrijiylik jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarining an'ana sifatida qaror topib borishiga xizmat qiladi. Agar ijtimoiy

¹⁷ Политология. Ўқув қўлланма. Халқ мероси, -Т. 2002.

¹⁸ Алимардонов Т. Жамиятда сиёсат ва ахлоқ мувозанати муаммолари. Сиёсий. фанлар д-ри. автореф.-Т.:

munosabatlar axloqiy qadriyatlar tizimiga nomuvofiq tarzda olib borilsa, jamiyat ma'nan inkirozga yuz tutadi, davlat boshqaruvida parokandalik hukmronlik qiladi. Kishilik jamiyatining bunday qonuniyatlari o'z mohiyatiga ko'ra hech bir davrda o'zgargan emas, aksincha oddilikdan murakkablikka qarab borgan.

Shu paytgacha siyosat va axloq kategoriyasiga faqat falsafa yo'nalishida etika fani muammosi sifatida qarab kelingan. Albatta, bunday munosabatlarning mafkuraviy sabablari ham bor. Ammo bugungi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan adolatli demokratik jamiyat qurilishidagi islohotlarimiz rivojini, natija va samarasini turli ijtimoiy harakatlarning manfaatlarini muntazam ravishda tahlilini olib boradigan ilmiy uslublar shakllanmogi muhim. Bizningcha, bu borada davlat va jamiyat boshqaruviga doir siyosiy axloq muammolarini o'rganish masalasi nazariy va amaliy jihatdan biroz o'zgarib kelmokda.

Jamiyatda adolat, tenglik hamda jamiyat ne'matlarini to'g'ri taqsimot qilish, mehnat va intellektual salohiyatlarni tabaqalashtirish kabi tamoyillarga qaratilgan qonunlarning amaliy natijasi siyosiy axloqni ta'minlovchi mezon bo'lib hisoblanadi. Ya'ni, adolat davlat tizimining barcha bugunlarida o'z ifodasini topishi siyosatning axloqiylikni kafolatlaydi. Bu borada I.A.Karimovning - «Biz shunchaki demokratik davlat emas, balki adolatparvar demokratik davlat qurishga intilyapmiz. Adolatga intilish - xalqimiz ma'naviy-ruhiy dunyosiga xos eng muhim xususiyat. Adolatparvarlik g'oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi, ijtimoiy ko'maklashuv mexanizmida o'z aksini topishi kerak»¹⁹, deb jamiyat va davlat o'rtasidagi axloqiy munosabatlarning nazariy mohiyatini ochadi. Ya'ni, demokratik jarayonlarning axloqiy asoslarini rivojlantirishda, avvalambor inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslarning tashkil toptirilishiga ahamiyat beriladi. Zero, siyosiy institutlarning huquqiy asoslari shakllantirilmasdan demokratik jarayonlarning sub'ektiv omil - shaxs irodasi bilan boshqarilishi ijtimoiy axloqning turg'unligiga, keyinchalik

milliy tafakkurning qotib qolishiga olib keladi. Sobiq tuzum faoliyatida bunday axloqsiz siyosat oqibatlarining guvohi bo'ldik.

Bugungi murakkab o'tish davrida, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini muntazam, barqaror hamda samarali ishlashini ta'minlashda, eng avvalo ruhiyatimizdagi illatlar mohiyatini va ular bilan bog'liq muammolar ko'lamini aniq tasavvur etmog'imiz zarur. Zero, jamiyat a'zolari va uning barcha qatlamlari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan davlat boshqaruvini tashkil etish va bunda axloqiy qadriyatlarning tizim sifatida shakllanishini ta'minlash barkamol shaxslarning Vatan ravnaqi yo'lida fidoyiligini talab etadi.

O'zbekistonning taraqqiyoti va keyingi rivojlanish istiqbollarini sarhisob qilar ekanmiz, uning o'tmish tarixiy rivojiga zavol bo'lgan omillarni aniqlash va ulardan to'g'ri sabok chiqarmoq istiqbolimizning garovi bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda ijtimoiy turmushimizda mavjud illatlar bilan saklanib kelayotgan o'tmish sarqitlarimizning negizlarini hali shakllanib ulgurmagan iqtisodiy texnologik omillardan emas, balki, o'zbek xalqini bir asrdan ko'proq davrda istibdod iskanjasida saqlab kelgan ma'naviy-ruhiy tanazzulidan izlamoq va shu tufayli kelib chiqqan fojialar ko'lamini aniqlamoq, xulosa chiqarmoq lozim bo'ladi.

Prezident I.A.Karimov - «Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi»²⁰ deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, siyosiy axloq jamiyatda ijtimoiy qatlamlarning manfaatini himoya etishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bunday ehtiyoj, avvalo milliy manfaatlar umumiyligida o'z ifodasini topishga qaratiladi.

O'zbekiston davlat mustaqilligi millat oldida tubdan yangi istiqbol ufqlarini ochib berdi. Bular avvalo, davlatimizning siyosiy mustaqilligi va uning fuqarolari ozod ekanligini bildirsa, ikkinchidan, bunday hurriyatning abadiyligini ta'minlashga va mustahkamlashga qaratilgan eng mas'uliyatli vazifa tarixiy davlatchiligimiz an'analari hamohang tarzda dunyoviy davlatni barpo etish bilan

belgilanadi. Chunki, demokratiya har bir millatning tarixiy madaniyatiga, o'ziga xos xususiyatlarini umuminsoniy qadriyatlar asosida uyg'unlashtira olgandagina o'z samarasini bera oladi. Bugungi kunda demokratik jarayonlarning siyosiy axloq qadriyatlari asosida shakllantirish hamda uni ijtimoiy turmushning ajralmas tarkibiy qismiga aylantirish davlatning huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy negizlarining mustahkam tizimida o'z aksini topadi va amalda ro'yobga chiqariladi. Bu jarayonlar avvalo, davlat boshqaruv vositalarining mukammalligida va unda qonunlarning amalda ustuvor ekanligida, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning ma'rifiyligida, demokratik jarayonlarning sobitqadamligida, jamiyatda ijtimoiy adolatning ta'minlanganligida, milliy ruhiyatning va ma'naviy axloqning umuminsoniy qadriyatlar bilan hamohangligida namoyon bo'ladi.

Mustaqil O'zbekiston bosib o'tgan tarixiy muddat tajribalari natijalaridan hamda shu davr ichida shakllanayotgan davlat boshqaruvidagi amaliy va nazariy tamoyillaridan kelib chiqib, uning ayrim milliy taraqqiyot xususiyatlari to'g'risida fikr yuritish mumkin. Jumladan, mustaqillikning ilk yillaridanok mamlakat taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy asoslari ishlab chiqildi. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish, Vatanparvarlik kabi to'rt asosiy negiz O'zbekiston rivojlanishining axloqiy asoslari sifatida qabul qilindi. Yangi, mustaqil taraqqiyot istiqbol rejasi va uni amalga oshirishning bosqichma-bosqich siyosiy mexanizmlari belgilandi. Mavjud milliy intellektual salohiyat yagona maqsad - bunyodkorlik ishiga safarbar qilindi. Islohotlarning asosi milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlar negiziga qurildi. Ma'naviyat milliy tiklanishni ta'minlovchi ustuvor omil sifatida qaraldi. Jamiyatda turli ijtimoiy qatlamlar manfaati uyg'unligini va uni muvofiqlashtiruvchi me'yorlarini belgilovchi bosh islohotchi davlatning «kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari» g'oyasi ilgari surildi.

Ammo mavjud erishilgan yutuqlarni asrash va yanada mustahkamlash, belgilangan nazariy tamoyillarni rivojlantirish uchun milliy axloqiy qadriyatlarga

²⁰ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида... - Т.: Ўзбекистон, 1997. -Б.137.

zid bo'lgan ijtimoiy illatlarning kelib chiqish sabablarini, omillarini muntazam ravishda ilmiy jihatdan o'rganishni tashkil etish demokratik jarayonlarning barqaror hamda mustahkam taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki har qanday yuksalish himoyaga muhtoj bo'ladi. Bunday xavflar, avvalo jamiyat barqarorligini, iqtisodiy, ijtimoiy yo'nalishlarni izdan chiqarishga qaratilgan g'ayriaxloqiy harakatlarda namoyon bo'ladi. Aytish joizki, sobiq shurolar xududida «demokratiya» deb ayuhannos solgan aksariyat mamlakatlar olib borgan siyosatlarida ijtimoiy yovuzlikning barcha ko'rinishlarini amalga oshirib buldi. Bu fojialarning barchasi «mavxum demokratiyaga», birovdan olingan «andoza demokratiyaga» intilish oqibatida namoyon bo'ladi. Natijada ijtimoiy illatlarning ziddiyatli va ixtilofli rivojini keltirib chiqargan ayrim shaxslar yoki guruhlarining mas'uliyatsiz siyosiy faoliyati butun boshli xalqlarni parokanda bo'lishga olib keldi.

Jahonda demokratik jamiyatning universal andozasi yo'q. O'zbekiston o'z siyosatida tarixiy-milliy an'analariga, madaniyatning o'ziga xos xususiyatlariga tayanmoqda. Ustuvor vazifalardan biri mavjud milliy salohiyatga suyangan holda jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, bozor iqtisodi islohotlarining jadallashuviga hamda mamlakat kudratini mustahkamlashga qaratildi.

1.2. Siyosat va axloqning munosabatiga mutsobil qarashlar va ularning xususiyatlari

Ma'lumki, muammo va ziddiyatlar mavjud bo'lgan joyda albatta siyosat ishtirok etadi. Siyosiy munosabatlar ta'sirida konfliktlar **uz** yechimini topadi. Dech bo'lmaganda murosaga keladi. Jamiyat munosabatlarida ziddiyat yoxud konsensus holati ikki qarama-qarshi hamda bog'lovchi siyosiy elementlardan tashkil topadi. Ushbu elementlarning qay birining ustuvorligiga qarab alohida olingan davlatlarning ichki va tashqi siyosiy tamoyillari shakllanadi va belgilanadi. Munosabatlar tipologiyasining me'yori, avvalo fuqaro, jamiyat va davlat munosabati xususiyatlaridan kelib chiqib, siyosiy axloq masalalarini o'rganishni talab etadi. Albatta bunda, tomonlarning bir-biriga karama-qarshi bo'lgan

munosabatlari, ular o'rtasidagi o'zaro manfaatlarning uyg'un kelishiga bog'liq bo'lib qoladi.

Shu tarifa mavjud muammo siyosiy-falsafiy jihatdan tashkil topgan ikkita yo'nalish - real va ideal siyosatning mohiyatini taxlil qilishga qaratiladi. Bunday yo'nalish jamiyatda axloqning siyosatga nisbatan muvozanatlarini, ularning o'zaro qarama-qarshi ziddiyatini ochib berishga yordam beradi. Siyosiy realizm mavjud siyosiy jarayonlarni aslida qanday bo'lsa, shundayligicha asosiy ob'ekt sifatida tadbik qiladi. Davlat boshqaruvida boshboshdoklikning oldini olish uchun siyosiy real vaziyatni to'g'ri baholash va undan ob'ektiv xulosalar chiqarilishini talab qiladi. Bunday siyosiy yondashuv axloqdan ko'ra, uni harakatga keltiruvchi oqibatlar mohiyati va belgilangan maqsadi bilan asoslanadi.

Siyosiy realizm mavjud ijtimoiy holatdan kelib chiqib, siyosatning asosida ezgu g'oyalar emas, avvalo faoliyatni harakatga keltiruvchi kuchlar manfaati yotadi. Masalan, K.S. Gadjiev «Jahon qiyosiy maydonida o'zini hurmat qiluvchi davlatlar g'oyaviy, axloqiy va boshqa qarashlarini ikkinchi daraja sifatida qarab, real siyosiy voqeylikdan kelib chiqib milliy manfaatlarini belgilaydilar»²¹ - deydi. To'g'ri, ammo, bunday sharoitda siyosiy ittifoqchilar o'rtasida do'stlik, hamkorlik tushunchalari o'ta nisbiy harakterga ega bo'ladi. Manfaatlarning o'zgarishi bilan munosabatlar ham o'zgarib turadi. Aslida jahon siyosiy maydonida shunday bo'lib ham kelmoqda.

Siyosiy realizm va xalqaro munosabatlar tajribasidan ma'lumki, kechagi ittifoqchilar raqibga, raqiblar esa ittifoqchiga aylanadilar. Bunday fenomen asrlar osha xalqaro maydonda hukmdorlik uchun bo'lgan kurashlarning hufiyona mohiyatini belgilab kelmoqda. Aslida, insoniyatning raqibi inson emas, u, keltirib chiqarayotgan yovuzlikdir. Shuning uchun inson, inson bilan emas, balki uning axloqsizligi tufayli kelib chiqayotgan yovuzligi bilan kurashmog'i kerak. Shunday qilib, inson oldida turgan muammolarni, uning ma'naviy kiyofasini o'zgartirish bilan siyosat va axloq munosabatlarini o'zgartirishga erishish mumkin bo'ladi.

²¹ Алимардонов Т. Жамиятда сиёсат ва ахлоқ мувозанати муаммолари. Сиёсий. фанлар д-ри, автореф.-Т.: 2006. –Б.14.

Lekin, siyosiy realizm ta'limoti axloqiy yondashuvlardan farqli o'laroq bir necha ilmiy yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bular:

Birinchidan, davlat hokimiyatining asosiy sub'ekta sifatida o'z fuqarolarini himoya qilish ustuvorligi, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi tura olish zarurati va ehtiyoji.

Ikkinchidan, siyosatda kuch va zo'ravonlikka asoslanish ichki va tashqi davlatlararo ziddiyatlarni hal etish murvati sifatida qaralmoqda. Bunday qarash davlatning kuch va quvvatini xdr tomonlama oshiradi. Bunda davlat nafaqat uz manfaatlarini balki raqibining ham manfaatlarini baxolaydi hamda ana shu ehtiyojlardan kelib chiqib, o'zining real siyosatini belgilaydi.

Uchinchidan, real siyosat manfaatga, konkret vaziyatga, samaradorlikka, bo'ysintirishga, hukmronlik qilishga, maqsadga erishishda kuch ishlatishga qaratiladi va bunday faoliyatda murosasiz bo'ladi.

Davlat aslida inson tafakkurining mahsuli, madaniy dunyoqarashining hosilasi. Shu tariqa uning shakli-shamoyili turli madaniyatlar va qadriyatlar asosida rivojlanib kelgan. Masalan, XVI - XVII asrlar yevropada mulkiy munosabatlarning xususiy tartibotlari shakllanayotgan davri bo'lib, egalik tasarrufining kengayib borishi bilan davlatning vakolatlarini mustahkamlash ehtiyojlari ortib boradi. Aynan ana shunday ehtiyoj ijtimoiy voqyelikning real siyosatini shakllantirish zaruratini tug'dirgan. Birinchi navbatda din davlatdan ajratildi, fuqaro, davlat mas'uliyat va majburiyatlari belgilandi. Monarxiyadan parlament va respublika boshqaruv shakliga o'tiladi. Bu davrda ishlab chiqarish raqobati o'z qonuniyatlarini tobora jadallashtirib borgan. Natijada, odamlarda yashash uchun kurash tendensiyasi oshib borgan. Shiddat bilan rivojlangan shafkatsiz raqobat inson faoliyatida ma'naviy mas'uliyatning pasayib ketishiga olib kelgan. Siyosiy faoliyatning axloqiy qadriyatlarga mos kelishi masalasi inobatga olinmay qolgan.

Masalaga kengroq yondashadigan bo'lsak, hokimiyat omili aslida fuqaro va davlat munosabatlarining o'zaro ehtiyoji bilan bog'liq xodisa. Hokimiyat odamlar uchun cheksiz imkoniyat va erkinlikni ta'minlab berish vositasiga aylangan.

Shunday qilib, hokimiyatga ega bo'lgan fuqaro va hokimiyatsiz fuqarolar o'rtasida ziddiyat paydo bo'lgan. Natijada siyosiy manfaatlar qarama-qarshiligi real va ideal mafkuraviy g'oyalar orqali talotup inkiloblarga olib kelgan. Inson tabiatidagi yovuzlik bunday xodisani reallikka aylantirgan. Ya'ni davlat insonning kuchga ega bo'lishi moyilligini ifoda etuvchi vosita sifatida ijtimoiy jarayonlarni turli «izm»larga solib kelavergan. Jamiyat hayoti va uning mohiyat mazmuni esa, o'zgarmagan. «Izm»lar o'zgargan bo'lsada, ammo, mavjud adolatsizlik ikkinchi bir zug'umning takroran paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Jan Jak Russo uzining «Tengsizlikning kelib chiqish sabablari haqida mulohazalar» asarida jamiyat taraqqiyotida qarama-qarshiliklar va nizolarning kuchayishi sinfiy qatlamlarning yuzaga kelishi kuchli davlatning vujudga kelishiga sabab bo'lganligini ko'rsatgan. Faylasuf fikricha, «fuqarolar» bitimini amalga oshirish lozim, ya'ni erkin bitimga asoslangan jamiyatning huquqiy tashkilotini tuzish kerak. Bunday ijtimoiy holatda har bir fuqaroning xususiy mulkka bo'lgan huquqi qonunlashtirilmog'i lozim. Davlat fuqarolarning mazkur qonunlarni himoya qiluvchi kuchga aylanishi zarur. Russoning fikricha, davlat respublika shaklida bo'lib, na boylar va na kambag'allar bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Xalqning manfaatlarini himoya qiluvchi oliy organ - xalq majlislari bo'lmog'i ko'rsatilgan. Bu organ chiqargan qarorlar xukumat va hukmron tashkilotlar tomonidan bajarilishi majburiy deb hisoblagan²². Ko'rinib turibdiki, bir paytlar ideal g'oya deb sanalgan Russoning qarashlari bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlarning siyosiy tizimlari negizini tashkil etadi. Demak, hokimiyat yovuzlik manbai emas, balki bunyodkorlik, barqarorlik manbai bo'ladi. Masalan, uni qay tartibda va qay maqsadda yo'naltirishga bog'liq. Shunday qilib, hokimiyat fuqarolar o'rtasidagi siyosiy makomni mustavkamlaydi, jamiyatda ular tengligini, qabul qilingan qonun va ijtimoiy tartiblarga rioya etish kafolatini ta'minlaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, siyosatda hokimiyat masalasi ustuvor ekan, siyosiy kuch ishlatish tamoyili mavjud bo'ladi. Kuch doimo davlatning ichki

resurslariga bog‘liq bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabatlarning imkoniyat darajasini belgilab turadi. Masalan, XVII asrda Xoja Samandar Termiziy tomonidan aytilgan o‘g‘itlarda shunday deyilgan: «Azizim, bir tola xasga arzimaydigan maxluq sifatlar hamisha o‘z boshlarini zulm va sitam oxuridan ko‘tarmaydilar. Podshohning asov oti kabi bevaqt, o‘rinsiz o‘jarlik, itoatsizlik qiladilar.

Rahbar ro‘y berayotgan bedodlikni o‘z boltasi bilan chopib, yer bilan yakson qilmasa, zamon bog‘idagi tilaklar, orzular niholi xazon bo‘ladi»²³. Xulosa qilish mumkinki, mavjud fikr real siyosatning nazariy asosini tashkil qiladi. Aslida, davlat ham siyosat ham himoyaga muhtoj. Ammo masalaning yana bir muhim jihatiga e‘tibor bering, real siyosatga axloqdan va haqiqatdan ayri holda qaralmagan, aksincha uyg‘unlashtirilgan. Qolaversa, bunday nazariy real siyosat sharqda ham rivojlantirilganki, Gobbs, Spinoza, Dikart, Russo va boshqa Fap6 ta'limotchilari qarashlari bilan uyg‘un keladi. Farq shundaki, G‘arbda parlament va respublika davlat boshqaruv shakliga o‘tish jarayoni ushbu g‘oyalarning siyosiy va huquqiy asoslarini mustahdamlashga va ularning amaliy ifodasini qaror toptirishga xizmat qilgan. Sharqda esa, real siyosat tantanasi «odil shox» zimmasida qoladi. Shuning uchun ideal g‘oyalar real siyosatning kurboniga aylanib kelgan.

Albatta siyosiy realizm ta'limoti davlat va hokimiyatning vujudga kelishi bilan paydo bo‘ladi. N.Makiavelli va T. Gobbsni bunday siyosatning asoschilari deb qarashadi. N.Makiavelli o‘z ta'limotida siyosiy natijalarnigina real siyosiy voqeyelikning asosi qilib oladi. Ya'ni, maqsad hokimiyatni egallash, so‘ngra esa uni tutib turishdan iborat bo‘lib, boshqa hamma narsa, shu jumladan axloq va din ham vosita deb hisoblanadi. Makiavelli axloqni siyosatga buysundiradi. Ya'ni, u, axloqni hukmdorning davlat barqarorligini ta'minlash maqsadida vosita sifatida karaydi. Bunda davlat manfaatini xalq manfaatidan ustun kuyish g‘oyasi ilgari suriladi. Natijada totalitar siyosatning asoslari vujudga keladi.

Ammo bu borada boshqa fikr ham mavjud. Jumladan, extimol, Makiavelli badaxloq jamiyatda siyosatchining hokimiyat uchun olishuvini qanday qilib yutishi

²² Янги ва энг янги давр Фарбий Европа фалсафаси. -Т.: Шарк, -Б. 63-64.

²³ Термизий Хожа Самандар. Дастур ул-мулк. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1997. - Б-63

to'g'risidagi nazariyalarning muallifi sifatida ko'prok ma'lumdir. Makiavellining ana shunday nuqtai nazardan kelib chiqib qaraladigan hokimiyat muammolariga nisbatan kizikishi axloqda zid yoki axlovdan tashkari turmaydi, balki uning maqsadi tartibsizlikni bartaraf qilish ekanligi miqyosida axloqiy bo'lib hisoblanadi. Maqsad yaxshi davlat yoki yanada aniqroq qilib aytganda, odamlar qanday bo'lsa, shu holida mavjuddir, degan qogan variantlarning eng yaxshisini tanlashdan iboratdir²⁴. Ammo, bunday qarash masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomondan esa, N.Makiavelli uz qarashlari bilan antik davr klassiklari an'analariga qarshi bo'lgan siyosatga yangi yondashuvni olib kiradi. Uning uchun siyosat mustaqil soha bo'lib, u o'zi uchun maqsadlarni, amalga oshirish usullari va vositalarini ishlab chiqadi. Shuning uchun siyosatning boshqa kategoriyalar ya'ni axloqiy qoidalar bilan boglab baxolamaslik lozim deb karaydi. Ayni paytda, N. Makiavelli siyosat qonunlarini inson tabiati mohiyatidan kelib chiqib shakllantirish lozim deb karaydi. Shu tariqa siyosatni axloqdan ajratib oladi. Tashkil etilgan chegara siyosatni kuchga asoslangan hokimiyat uchun kurash vositasiga aylantiradi. Makiavelli axloqiy tamoyillarni hisobga olmagan holda mustahkam davlat barpo etishning siyosiy uslubiyatini yaratadi. Uning fikricha, siyosiy davlat faoliyati axloqda buysuna olmaydi²⁵.

Albatta, N. Makiavellining qarashlarini siyosiy axloq doirasidan mutlakr tashqarida deb bo'lmaydi. Davlatning mavjudligini ta'minlash va uning asosida kuch ustuvor vosita bo'lishi axloqsizlik emas, davlat mohiyatan barcha fuqarolarni himoya qila olish darajasida kuchga va uni ishlatish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Zero, davlatning zaifligi g'ayriaxloqtsh xodisadir. Agar davlat zaif bo'lsa, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jamiyat barqarorligini saklab turish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

Ammo N. Makiavelli fikrlari taxlilidan xulosa qilish mumkinki, u davlatni iloxiylashtirib, insonga nisbatan yovuzlik manbai sifatida karaydi. Shundan kelib chiqqan holda kuchli davlatni tashkil etish uchun jamiyat a'zolarini shu maqsad

²⁴ Фалсафа тарихи. -Т.: Шарқ, 2002. -Б. 269.

²⁵ Алимардонов Т. Жамиятда сиёсат ва ахлоқ мувозанати муаммолари. Сиёсий. фанлар д-ри. автореф.-Т.:

yo'lida kurbon k. ilish mumkinligini oklaydi. Va, bu yo'lida zuravonlikka asoslangan barcha vositalarni birlashtiradi.

N.Makiavelli o'zining g'oyaviy qarashlarida insonning yovuz hissiyotlarini rag'batlantirishga asoslanadi. Shunga muvofiq, u ezgullikka nisbatan yovuzlikni g'alaba quroli, aniqrog'i, vositasi sifatida rivojlantiradi. Inson uzi anglamagan, lekin amalda yarim chala sifatida foydalanib kelgan yovuz imkoniyatlarini takomillashtirishiga e'tibor qaratadi. U hukmdorga bergan tavsiyasida shunday deydi: «Odamlarni yo alkash, yo kirish kerakligini aytib o'tish lozim. Chunki, ko'rsatilgan ozgina jabr uchun odam qasos olishi mumkin, katta zulmga esa qarshilik ko'rsata olmaydi. Bundan odamga jabrni ham kelajakdagi kasosdan kurkmaydigan darajada hisobga olib qilish kerakligi xususida fikr chiqadi»²⁶. Shu o'rinda Makiavelli odamlarni hukmdorga va davlatga muxolifat sifatida kdraydi. Guyoki, hukmdor odamlarga qarshi turish bilan o'z hukmronligini saqlab qolishi mumkinligiga ishora qiladi. Odamlarga nisbatan yoki ayonlarni alkash yoxud kirish bilan hukmdor o'z hokimiyatini qay muddatgacha saqlay olishi inobatga olinmaydi. Umuman, shu tariqa insonlar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishda hukmdor uchun faqat ikki yo'l borligini ko'rsatadi. Hukmdor, o'z davlatini dushmanlardan xavfsizlantirishi, bu yo'lida yangi do'stlar ortirishida kuch bilan yoki ayyorlik bilan xalqda muhabbat hamda qo'rquv singdirishi, ziyon keltirishi mumkin bo'lgan odamlarni esa yo'qotmoq zarurligini ta'kidlaydi. Shu fikrlarga hamoxang tarzda: «Yaxshilikka har bir sohada e'tiqod va amal qilaman degan odam - yaxshilik mutlaqo yot odamlarga duch kelaverib albatta halokatga uchraydi. Bundan chiqadigan xulosa shuki, hokimiyatni saqlab qolaman degan hukmdor - yaxshilik qilishdan o'zini olib qochish mahoratini egallashi va zarur bo'lganda bu mahoratini ishlatishi kerak», deydi.

Bugungi kunda N.Makiavellining shu kabi g'ayriaxloqiy qarashlarini ko'plab olimlarimiz inkor etib kelmoqdalar. Jumladan, M.Jakbarov shunday deydi: «Adolatning mezoni, Makiavelli fikricha, insonlar manfaatlarini himoya qilish,

2006. –Б.15.

²⁶ Макиавелли Н. Хукмдор // Жахон адабиёти. Т.: 2002. - № 9. -Б.108.

mazlumlarga shafqat va rahmdillik ko'rsatish, vijdon talabi ila olib borish emas, balki shohning siyosiy maqsadlarini amalga oshirish yo'lida, uning faoliyatini asoslab berish uchun bir vosita hisoblanadi. U insonni ishonch va hurmatga arzimaydigan maxluq inson mohiyatiga ko'ra razil va munofikdir, shuning uchun ham unga nisbatan qo'llangan firibgarlik va zo'rvonlik choralari xaqlidir, deb hisoblaydi»²⁷.

Jamiyatda bir xil bo'lmagan axloqiy darajadagi tabaqalarning turli qarashlari mavjud, ammo ularni birlashtiradigan yagona g'oya faqat axloqdir. Real siyosat ana shu haqiqatga asoslanmog'i, davlat esa vosita sifatida unga xizmat etmog'i lozim.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, davlatning mavjudligini ta'minlash va uning asosida kuch ustuvor vosita bo'lishi - bu axloqsiz hodisa emas. Davlatning vazifasi mohiyatan barcha fuqarolarni himoya qila olish kabi maqsadlarga asoslanishi bilan belgilanadi. Makiavelli esa davlatni ilohiylashtirib, insonga yovuzlik manbai sifatida qaraydi. Shuning uchun u kuchli davlatni tashkil etishda jamiyat a'zolarini shu maqsad yo'lida qurbon qilish mumkinligini oqlaydi. Va bu yo'lda zo'ravonlikka asoslangan barcha vositalarni birlashtiradi. Davlatchilik qurilishiga bunday tarzda yondashuv uni kuchaytirishga emas, aksincha, yemirishga xizmat qilgan. Totalitar davlatlar siyosiy tarixi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Siyosiy idealizm tushunchasi falsafiy mohiyatidan farqli o'laroq dunyoni qanday bo'lsa shundayligicha emas, balki qanday bo'lishi lozimligi to'g'risidagi tasavvurlarda uz ifodasini topadi. Royalar va mafkuralar yaratilgan siyosiy idealizmning falsafiy mohiyati insonning ogir turmush tarzidan kutulib farovon va baxtli hayotga bo'lgan orzulari ifodalanadi. Inson o'z orzusini hayot mashakdatlariga qarshi qo'yadi, shu tariqa avval ertaklar, qo'shiklar va rivoyatlar orqali ifoda etadi.

Ammo hayotda xayoliy tasavvur bilan jamiyat qurib bo'lmaydi. Ideal mukammal ijtimoiy - siyosiy qurulma o'tmishga yohud kelajakka qaratilgan

²⁷ Жамиятни эркинлаштириш ва маънавият. Муаллифлар жамоаси. –Т.: Академия, 2002. - Б. 44

bo'lishi ham mumkin. Bunday loyihalar, fikrlar Platon, Aristotel, Konfutsiy asarlarida utmish qadriyatlari bilan bog'liq marosimlar, tartiblar, axloqiy qoidalarga rioya etishga chaqiradi. Ikkinchi toifadagilar inkilobiy loyihalar asosida jamiyat va davlat qurilishini tubdan o'zgartirishni yoqlab chiqadilar. Go'yoki, faqat shunday yondashuv ijtimoiy adolatni, erkinlikni yoki irqiy, milliy umumiy tenglikni ta'minlaydi deb o'ylaydilar. Masalan, Platonning «Davlat»idan Kamponellaning «Quyosh o'lkasi» asarlarigacha bo'lgan utopik qarashlar siyosiy idealizmning eng yuqori ko'rinishlari hisoblanadi. Barcha ideal loyihalar, aslida inson kamolotiga qaratilgan ruhiy tashabbusi bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Siyosiy idealizm tarafdorlari aksariyat xollarda inson fojialarini uning o'zidan emas, balki ijtimoiy sharoitdan, jamiyatning shakllanmaganligidan, deb biladi.

Insoniyat tarixida ko'plab g'oyalar vakt o'tishi bilan siyosiy idealizm qobig'idan chiqib ertami-kechmi siyosiy realizm an'analarini boyitgan. Shuning uchun siyosiy idealizm bilan realizm o'rtasiga chegara quyib bo'lmaydi. Yoki ularning qay biri siyosat uchun ijobiy va afzal ekanligi to'g'risidagi bir yoqlama munozara maqsadga muvofiqq ham emas. Qolaversa, ijtimoiy-siyosiy fikrlar siyosiy jarayonlarda o'zgaruvchan xususiyatlarga ega. Tarixiy va siyosiy jarayonlar ehtiyojiga binoan ideal g'oyalar o'rniga real g'oyalar keladi hamda bir-birlarini to'ldirishga xizmat qiladi. Masalan, jamiyat rivoji yoki uning taraqqiyoti shu jamiyat a'zolarining o'z istiqbollari qanday idrok etishga va unga intilishlariga bog'liq. Ya'ni, ba'zi g'oyalar mantiqiy utopiya yoki aqidaparastlikdan nariga o'ta olmaydi. Boshqa bir g'oyalar ham borki, ular ijtimoiy qonuniyat talablariga muvofiq yaratilsada, ijtimoiy hayotda fuqarolarning istak - hoxishiga aylana olmaydi, ya'ni ular fuqarolar ma'naviyatiga mos kelmaydi. G'oyalarning yana bir turi borki, ularda fuqarolarning barcha istaklari o'z ifodasini topgan bo'lsada, ammo davlatning amalga oshiradigan amali bo'lmasa, bunda ham eng hayotiy g'oyalar g'oyaligicha qolib ketadi. Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy: «Inson baxt-saodat nimadaligini tushungan bo'lsa-yu, unga erishishni maqsad qilib olmasa, g'oya va hoxishiga aylantirmagan bo'lsa, unga nisbatan ozgina bo'lsa-da,

shavq va zavq sezmasa, istak va mulohazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa bu qilmishlari yomon va noo'rindir»²⁸, deydi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, birinchidan, kishilik jamiyati tarixida insoniyat o'zi yaratgan ideal g'oyalarning ko'proq dushmaniga aylanib kelgan. Ya'ni, ideal g'oyalarni ma'lum siyosiy manfaatlar nuqtai nazaridan yoki ma'naviy ojizligi tufayli kabul kila olmagan inson tafakkuri jamiyat rivojiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan ilg'or g'oyalarning yashashi va qaror topishi uchun imkoniyat bermagan.

Ikkinchidan, ideal va real siyosatning talablarini jamiyat manfaatlariga muvofiqlashtiruvchi kuch - axloq bo'lib qoladi. Axloqi yo'q ideal g'oyalar jamiyatni fashizmga, kommunizmga yoki axloqi yo'q realizm zo'ravonlikka, anarxiyaga, parokandalikka olib keladi. Siyosatda ularning muvozanatiga erishish «fuqaro - jamiyat - davlat» munosabatlarini barqarorlashtiradi, istiqbol maqsadlarini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, har qanday mafkuraning asosi axloq ekanligi, davlat, jamiyat va fuqaro munosabatlari haqiqat, adolat kabi o'zaro manfaatlar asosida qurilishi mafkuraning axloqiy tamoyillarini mustahkamlaydi. Shundagina mafkura millatning hayotiy ehtiyojiga aylanadi va u milliy-ma'naviy yuksalishga xizmat qiladi.

²⁸ Қаранг: Щацкий Е. Утопия и традиция. -Москва: Прогресс, 1990. - С. 27.

IKKINCHI BOB. JAMIYATNI MODERNIZATSIYA QILISHDA SIYOSAT VA AXLOQ MUVOZANATINI TA'MINLASH MUAMMOLARI

2.1. Globallashuv jarayoni va siyosiy axloq muammolari

Har qanday davlatchilikning shakllanishi, xalqlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlar murakkab ijtimoiy evrilishlar asosida tashkil topadigan siyosiy jarayondir. Uning murakkabligi ijtimoiy maqsadlarni qaror toptirishda manfaatlarning turli-tumanligi bilan belgilanadi. Manfaatlar yechimi esa aksariyat hollarda o'zaro ixtiloflar, kurashlar bilan o'z bag'rida turli taxlikali tahdidlarni saqlab kelganligi bilan harakterlanadi. Bu borada davlatchilik tarixiga umuminsoniyat kechmishining uzviy bir qismi sifatida nazar soladigan bo'lsak, urushlar tarixi bilan bog'langanligini, ayni paytda davlatchilikning yuzlab shakllari kashf qilinganligining guvohi bo'lamiz. Garchi urushlar ofat, kulfat va talofat manbai bo'lishiga qaramasdan, u insoniyatning yashash shartiga aylanganligini kuzatamiz.

Afsuski, insoniyat uz tarixida mohiyatan o'xshash bo'lgan tarixiy tahdidlarning yangi ko'rinishlarini takrorlab keladi. Demak, tahdid insondan tashqari hodisa emas, aksincha, uning tabiatida yashiringan so'ngra, amaliy faoliyatga ko'chib o'tadigan hol ekan. Shu tariqa urushlar uz mohiyatiga ko'ra insonlar tomonidan adolatli va adolatsiz urushlarga bo'linib kelingan. Shu sababdan urushlarning moddiy manfaatdorlik asosi mafkuraviy vajlar bilan berkitib kelingan.

Aslida insoniyat har qanday tajovuzga, qirgin barot urushlarga nafrat bilan qaraydi. Ammo ularning kelib chiqish sabablarini millatlar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning g'ayri axloqiyligidan emas, manfaatlar nomutanosibligidan axtaradi. Manfaatlar esa, doimo o'zgaruvchan sifat kasb etishini unutib qo'yadi. Ularni faqat umuminsoniy qadriyatlar negizida uyg'unlashtirish mumkin. Xalqaro munosabatlardagi ana shunday ziddiyatlar doimo ko'plab olimlarning e'tiborini tortib kelgan. Xususan, ko'plab muloxazalar asosida tashqi siyosatning xususiyatlarini ayrim olimlar axloqdan tashqari hodisa sifatida deb, uning nazariy

tamoyillarini real voqyelikdan kelib chiqib rivojlantirishga o'rinadilar. Real voqyelik esa, afsuski, kuch kimda bo'lsa, siyosatda ustuvorlikka asoslanishini ko'rsatadi. Muammo shundaki, insoniyat xanuzgacha o'z munosabatlarini ma'rifiy xalqaro tizim asosiga ko'ra olmadi. Shunga muvofiq, xalqaro siyosiy munosabatlarning natijalari, ko'p hollarda, davlatlarning ikki tomonlama tenglik nuqtai nazaridan emas, balki harbiy texnologik qudratiga qarab hal etib kelinmoqda. Umuminsoniy qadriyatlar shiori esa, mavjud axloqsiz holatlarni nikoblashga xizmat qilmoqda.

Shunday ekan, insoniyat tahdid va mojarolarning kengayishini qanday vositalar bilan to'xtata oladi?! Umuman, insoniyat urushlarsiz yashay oladimi?! Moddiy dunyoning ne'matlarini to'g'ri taqsim qilishning ma'rifiy yo'llari bormi?!

Bizning nazarimizda, bugungi dunyoning global muammosi umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy axloqning muhimligini anglab yetishdagi qiyinchilikda namoyon bo'lmoqda. Dunyoning yaxlitligi va uning istiqbolini faqat yuksak axloqy munosabatlar kafolatlashi mumkin. Inson yovuzlikka ongli harakati natijasida keladi, nafsga mutelik uni jaholat girdobiga tortadi. Natijada insonda kelajak uchun mas'uliyat hissi yo'qoladi. Masalan, Afg'onistonda Tolibonlar tomonidan Budda xaykallarining vayron etilishi, aslida, shu xalqning ming yillik ulkan tarixiga bolta urish bilan teng bo'lsa-da, lekin ular o'z muxoliflariga shu tariqa zarba bera olganlaridan o'zlari ancha yengil tortdilar. Yoki yarim asrdan buyon davom etib kelayotgan Yaqin Sharqdagi ma'nisiz urush va bunda ko'plab tomonlar manfaatlarining pinxona ifodasi mavjudligi kimga sir?! Dunyoda siyosiy kuchlar muvozanati o'zgargan bo'lsada, uni bo'lib olishga bo'lgan ishtiyok o'zgargan emas.

Axloqning ziddi - g'ayriaxloqiylik ko'pincha turli ziddiyatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Taassuflar bo'lsinki, davlatlar, millatlar o'rtasida, sun'iy ravishda, ziddiyatlar keltirib chiqarish bilan maxsus shug'ullanadigan guruhlar ham mavjud. So'nggi yillarda siyosatshunoslar tomonidan xalqaro miqyosdagi mavjud mojarolar va ziddiyatlar mohiyatini aniqlash borasida muayyan ilmiy kuzatishlar olib borilmoqda.

Bugungi xalqaro manfaatlar bilan bog‘liq mojarolarning yana bir sababi davom etib kelayotgan qurollanish poygasidir. Yadroviy va boshqa ommaviy qirg‘inbarot qurollarni ishlab chiqarish bir necha yildan beri xalqaro hamjamiyat tomonidan qoralanganiga qaramay ularning o‘shish sur‘ati davom etib kelmoqda. Bir tomondan, go‘yoki qurollanishga barcha qarshi chiqayotgandek, ammo, ikkinchi tarafdin, imkoniyatlari bor davlatlar qurollanishni bir davda ham to‘xtaganlaricha yo‘q. Qolaversa, ommaviy qirg‘inbarot qurollariga ega davlatlar soni, aksincha ortib bormoqda. Aynan rivojlangan mamlakatlar tomonidan harbiy samolyotlar, bolistik raketalar va boshqa qurollar bozori avjga chiqmoqda. AQSh texnologik byurosi xulosasiga ko‘ra rivojlangan davlatlardan 6 tasi 43 turdagi zamonaviy qurollarni ishlab chiqarishning xalqaro litsenziyasiga egadirlar. Bu davlatlar o‘zaro qurol-yarog‘ savdolarini dunyoning xoxdagan burchagida amalga oshirish huquqiga ega. Qolgan davlatlarning faoliyati esa g‘ayriqonuniy hisoblanadi. Tabiiyki, bunday munosabatning nomutanosibliqi boshqa bir ziddiyatlarning kelib chiqish sababini o‘z bag‘rida saqlab keladi.

Insoniyat uchun umumglobal muammolarga aylangan qurol-yarog‘ poygasi, yadroviy tahdidlarning, ekologik vaziyatning zurayishiga, aholi turmush darajasining pasayishiga, turli kasalliklarning kuchayishiga, natijadajaxrn iqtisodiy tizimining izdan chiqishiga olib keladi. Binobarin, dunyoda tinchlikni saqlash, urush va mojarolarni bartaraf etish, ximiyaviy, bakteriologik, yadroviy qurollanishni to‘xtatish bugungi kunning eng ustuvor, eng dolzarb vazifalaridir. Muammolarning global mohiyati bugungi kunda toboro avj olayotgan qashshoklik, ochlik, epidemiya, atrof muhitning ifloslanishi, issiklik energiyasi hamda tabiiy resurslarning tankisligida namoyon bo‘lmoqda. Muammolarning yana bir yirik ko‘lami mehnat bozorlarining taqchillashayotganligi bilan ham belgilanmoqda. Ommaviy ishsizlik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarni birdek tashvishga solmoqda. Shunga bog‘liq holda inson huquqlarini himoya qilish, uni tashqi tajovuzlardan asrash amalda og‘irlashib bormoqda. Sanab o‘tilgan muammolar ko‘lami o‘z tabiatiga ko‘ra, inson faoliyatining turli jabhalarini qamrab oladi. Shuning uchun ham bu muammolarni bartaraf etishning kompleks

yondashuvlarini o'rganish, shunga muvofiq, tarkib topgan mavjud siyosiy va iqtisodiy xalqaro tizimni takomillashtirish zaruriyati tug'ilmoqda. Bugungi kunda xalqaro jamoatchilik faoliyatini konsensusga olib kelish yo'llarini ishlab chiqish lozim. Buning uchun davlatlar o'rtasida erkin savdoni rivojlantirish, iqtisodiy muammolarni hamkorlikda hal etish talab etiladi. Global taraqqiyotning iqtisodiy muammolarini yechish, avvalo, dunyoda tinchlikni saqlashga bog'liq. Ammo aksariyat rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy daromadi harbiy sanoat komplekslari faoliyatiga asoslangan. Qurolsizlanish ular iqtisodiy daromadlarining muayyan darajada pasayishiga hamda ayrim davlatlar geopolitik mavqeining tushishiga sabab bo'ladi. Aslida qurollanish va uni sanoat asosida takomillashtirish ishsizlikning ko'payishiga olib keladi. Amerikadagi olimlarning ilmiy ma'lumotlariga ko'ra, harbiy sanoatda bir ishchi o'rnini tashkil etish uchun fuqaroviy sanoatga nisbatan to'rt karra ko'proq harajat talab etilar ekan. Harbiy ehtiyojlarga sarflangan 10 mlrd dollarga ishlab chiqarish korxonalarida 40 ming kishi uchun ishchi o'rnini tashkil etish mumkin. Dunyo bo'yicha bir yilda sarflangan harbiy harajatlarga 150 mln. ga. cho'l yerni o'zlashtirish va bunda 1 mlrd aholini bokish imkoniyati hamda shu mablagga 500 mln aholiga 100 mln kvartira, 650 mln bola uchun mo'ljallangan 1 mln. maktab binosini qurish mumkin ekan. Yuqoridagi ko'rilgan global muammolarning siyosiy-iqtisodiy, sotsial va ekologik jihatlarining ijtimoiy axloqqa muvofiqligi nuqtai-nazaridan o'rganmoq dolzarb vazifalar qatorida qoladi. Shu bois xalqaro munosabatlarni demilitarizatsiya qilish, barcha davlatlar manfaatlarini hisobga olgan holda xududiy xavfsizlik tizimini hamda xalqaro barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan mexanizmlarni tashkil etish; Har bir davlatning suverenitetini, o'zi tanlagan sotsial-iqtisodiy yo'lining huquqiy kafolatlarini amalda ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va bunda xalqaro munosabatlarni mafkurasizlashtirish; Xalqaro munosabatlarning insonparvarlik asosiga qurilishida inson huquqlari kafolatlarini ta'minlashning xalqaro tizimini takomillashtirish, xalqlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va hamkorlik rishtalarini mustahkamlash; Bugun insoniyat uchun olam bir butunligi, barqarorligi uchun qarama - qarshiliklar kurashi falsafasi emas,

balki hozircha tafakkurimiz xazm qila olmayotgan o‘zaro “hamnafaslik” tafakkuri ustuvor ekanligini tushunib yetish payti keldi²⁹.

2.2. Siyosiy hokimiyatni modernizatsiyalashning siyosiy-axloqiy mexanizmlari

Jamiyat boshqaruvi nihoyatda murakkab, ziddiyatli, qarama - qarshi, turli manfaatlardan iborat siyosiy tizimdir. Uning siyosiy va axloqiy tamoyillarini shakllantirish, qaror toptirish undan-da murakkab jarayondir. Ularning uyg‘unligiga jamiyat a'zolarining madaniy darajasi orqali erishiladi. Agar mavjud ijtimoiy qadriyatlar zaif bo‘lsa, jamiyatda huquqiy munosabatlar nisbiy ko‘rinish kasb qiladi. Ya'ni milliy qadriyatlarning ijtimoiy hayotda qaror topishga qaratilgan huquqiy me'yorlar ham o‘z ta'sir kuchini ko‘rsata olmaydi. Kishilik jamiyati rivoji tajribalariga nazar soladigan bo‘lsak, har bir jamiyat va uning a'zolarining o‘z taraqqiyotida jamiyatdagi mavjud mulklarni tasarruf etishga, undan yanada ko‘proq manfaatdor bo‘lishga va ijtimoiy jihatdan yuqoriroq mavqeyeni egallashga bo‘lgan doimiy intilishlarini kuzatamiz. Bunday intilishlar jaholat va ma'rifat, adovat va adolat, muruvvat va razolat o‘rtasidagi azaliy kurashlar bilan bog‘lanib kelgan.

Shu jihatdan insonning “tasarruf” etishga bo‘lgan intilishi va shu istaklar oqibatida o‘ylab topilgan ming xil siyosiy amallari xalq uchun ko‘plab ijtimoiy ixtiloflarni keltirib chikargan bo‘lsa-da, bunday yondashuvlar hamon eskirgan emas. Aslida ushbu harakatlarning barcha ko‘rinishlari zahirida insonning nafs va uni qondiruvchi hokimiyatga bo‘lgan intilishlari yotganligining guvohi bo‘lamiz. Ma'rifiy jamiyatlarda fuqarolar o‘rtasida shakllangan bugungi huquqiy munosabatlar aslida inson ongi va madaniyatining hosilasi va tantanasidir. Zero, kishilik jamiyatida adolatga intilish bo‘lmaganida, insoniyat XXI asrga yetib kelmagan bo‘lar edi. Nima bo‘lganda ham, adolat ko‘p asrlik evrilishlar silsilasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida rivojlandi, takomillashdi. Tashkil topgan huquqiy ta'limotlar insonlar o‘rtasidagi yovuz munosabatlarga qarshi axloqiy qadriyatlarni qo‘ydi. Ayni paytda, insoniyat kuch ishlatish o‘rniga huquqiy

²⁹ Пахруddинов.Ш. Тахдид ҳалокатли куч. -Т.: Академия, 2001. - Б. 48.

munosabatlarga tayanish yo'lini tanlay boshladi. Aynan ushbu jarayonlarda siyosat va axloq muvozanatini ta'minlash muammolari masalasi vujudga keladi.

Siyosiy hokimiyat yoki huquqiy davlat qurilishi konsepsiyasining nazariy ta'limoti va uning tushunchalari XYIII hamda XIX asrlarda Fap6 olimlari tomonidan shakllantirilganligi bizga ma'lum. Jon Lokk, Sharl Moteske, I.Kant, T.Jefferson, Jan Jak Russo va boshqalar huquqiy davlat boshqaruvining nazariy asoslarini, avvalo, hokimiyatlar bo'linishi va taqsimoti prinsiplari, fuqaro, jamiyat, davlat a'zolarining shartnomaviy munosabatlari, ularning mas'uliyat va burchlarini belgilash, turli e'tiqodlari hamda intilishlarining amaliy ifodasini mujassam etgan ta'limotlarga asos soldilar.

Falsafiy va siyosiy fanlar tarixidan bizga ma'lumki, hokimiyat bulinishi yoki taqsimoti masalalari davlatchilikning ilk shakllanish davridayoq u yoki bu tarzda vujudga kelgan. Bunday munosabat hokimiyatning yakka shaxs boshqaruvi asosida tashkil etilgan bo'lsa, ikkinchidan davlatning institutsional boshqaruvini tashkil etish ehtiyojlari orqali hokimiyatlar bo'linishi tartibotlari shakllangan. Mavjud ijtimoiy an'ana bir tomondan hokimiyatlarning barqaror, ayni paytda muvozanatda ishlashini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarni murosaga keltirishga hamda qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga xizmat qilgan. Dastlabki, hokimiyatlar bo'linishi siyosiy va diniy hokimiyatlar o'rtasida namoyon bo'ladi. Ya'ni, hukmronlikka da'vo qilishda hokimiyat va cherkov bir-birlariga nisbatan doimo muxolifatda bo'lganlar. Ixtiloflar nisbati, avvalo cherkov ko'rsatmalarining siyosatga zid ekanligida yoki hukmron hokimiyat maqsadlari yo'lidagi nizolarda kuzatiladi. Bunday munosabatlar, ayniqsa, yevropada XYII asrga kelib keskin tue oladi. Shark davlatlarida bu masala boshqacha ko'rinishga ega. Ya'ni, din va siyosat hokimiyat tarkibida uyg'unlashib ketganligini ko'ramiz. Boshqacha qilib aytganda, din hokimiyatning mafkurasiga aylantirilgan. Ayrim jihatlarida dinning alohida boshqaruvlarini ham kuzatish mumkin, ammo, shunda ham din va uning tashkilotlari hukmron hokimiyat ko'rsatmalari ta'sirida bo'lgan. Natijada

muholifatga o'rin qolmagan. Ayrim Sharq davlatlarida hanuzgacha hokimiyatlar faoliyatida diniy siyosat ta'siri saqlangan.

Hokimiyatlar taqsimoti siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-ma'naviy g'oyalarning rivojlanishi, ilm-fanning diniy mutaassiblik ustidan golib kelishi, xurofiy qarashlarning yemirilib borishi, shuningdek, monarxiya va despotik tuzumga qarshi kurash oqibatida vujudga keladi. Shu tariqa XYII va XYIII asrning boshlariga kelib G'arbda juda katta siyosiy, ijtimoiy, ilmiy va g'oyaviy o'zgarishlar sodir bo'ldiki, u bevosita hokimiyat boshqaruvi asoslariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Jumladan, Montesk'ening ta'limotiga ko'ra sud hokimiyati xalq manfaatini himoya etishga qaratilgan, ijro hokimiyati monarxiyani, qonunchilik palatasi esa aristokratiyani himoya etishga qaratiladi. Uning yozishicha har bir hokimiyat umumdavlat funksiyasida ma'lum vazifalarni ijro etishi lozim. Ammo, bunday alohidalik mutlaqlashtirilmaslgi, ular o'z vakolatlari doirasida uyg'un harakatda faoliyat olib borishi nazarda tutilgan.

Ma'rifiy, ochiq jamiyatda davlat siyosati birinchi galda xalq manfaatlarini himoya qilishi konstitutsiya bilan hamoxang bo'lgan boshqaruv orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, tanlangan yo'l va taraqqiyot hamma uchun aniq va amalda bajarish imkoniyati mavjudligi bilan belgilanadi. Fuqarolar konstitutsiyaviy huquqlari orqali hamda uning amaliy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'z manfaatlarini bevosita xis qiladilar. Jamiyatda xalq o'z maqsad va intilishlarini, istiqloq taqdirini davlat siyosatida qanchalik aniqq qursa, unda shunchalik ixlos bilan ishtirok etadi, ergashadi va suyanadi. Davlatni o'z taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy hodisa, oliy qadriyat sifatida qabul qiladi. Natijada davlat siyosati bilan fuqarolar manfaatlarini, jamiyat taraqqiyoti bilan odamlarning maqsad va intilishlari uyg'unlashib, yagona hodisaga aylanadi³⁰. Aynan shunday nazariy qarash davlat va jamiyat boshqaruvining axloqiy asoslarini tashkil qiladi.

Fransuz faylasufi Gelvitsiy bir paytlar shunday degan: "Jamiyatdagi nuqson-kusurlarning ko'pligi kishilarning qaxr-g'azab, dod qilishida emas, balki qonunshunoslarning johilligiga borib taqaladi: chunki ular xususiy manfaatlarini

umumiy manfaatlarga karama - qarshi qo'yadilar"³¹. Jamiyatdagi nuqsonlarni yo'qotish uchun xususiy manfaatlarining umumiy manfaatlar bilan uyg'unligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ammo, bunday jamiyatda uyg'unlik uz-o'zidan hosil bo'ladigan jarayon emas. Aslida har qanday davlatning Konstitutsiyasi shu xalqning orzu-intilishlarini ifoda etuvchi, qolaversa, uning salohiy kuch-kudratini namoyon etuvchi axloqiy istiqbol dasturi bo'lmog'i muhim. Davlat boshqaruvining huquqiy asoslarini takomillashtirish tajribalaridan ma'lumki, eng dolzarb muammo bu huquqiy munosabatlarning yetarli darajada takomillashmaganligidir.

Ko'pgina mamlakatlar ijtimoiy hayoti tajribasidan qurish mumkinki, qonunsizlik oqibatida g'ayriaxloqiy siyosat shakllangan, o'zaro noteng munosabatlarni tabiiy taqdir takrarsi deb qarash tendensiyasi hukmronlik qilgan. Masalan, yarim asr mukddam mustaqillikka erishgan Hindistonning ruhiy karamlik botkogidan chiqishi bugungacha og'ir kechmoqda. Zero, Hindiston Konstitutsiyasiga muvofiq barcha fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan tengligi belgilangan bo'lsa-da, hamon kastalarning, urug'larning tabaqalanishi, shunga muvofiq, jamiyat mulklarining noteng taqsimlanishi saqlanib kelmoqda. Birgina 1999 yilning o'zida kastalar o'rtasidagi hufiyona karama-qarshiliklar tufayli davlat tomonidan ajratilgan millionga yaqin ishchi o'rinlari to'ldirilmagan. Ayni paytda, barcha kastalar va urug'lar uchun davlat korxonalarida, o'quv muassasalarida alohida teng kvotalar ajratilgan. Xotin-qizlar, bolalar masalalarida ham hamon XVIII va XIX asrlardagidek salbiy munosabatlar saqlanib kelmoqda. Hind xalqi bugun kosmosga uchaypti, yangi texnologiyalar yaratyapti, ammo yalpi aholining savodxonlik hamda turmush darajasi esa nihoyatda past. Bunday misollarni Lotin Amerikasi, Afrika, Yaqin Sharq va Osiyo mamlakatlari hayotidan xdm keltirish mumkin. Ammo xulosa shunday bo'ladiki, agar davlat boshqaruvi va uning qonunlari barcha jamiyat a'zolari manfaatlariga xos hamda mos tarzda rivojlantirilmas ekan, unday jamiyatda axloqiy boshqaruv hukmron deb bo'lmaydi. Ayni paytda, davlat siyosati jamiyatda qotib qolgan

³⁰ Жураев Н. Саккиз йил сабоғи // Жаҳон адабиёти, 1999. - № 9. - Б. 5

³¹ Янги ва энг янги давр Фарбий Европа фалсафаси. -Т.: Шарқ, 2002. - Б. 100

milliy mentalitet bilan bog‘liq qarashlarni uyg‘otish, adolatni umuminsoniy qadriyatlar asosida tashkil etishda o‘zining majburlash vositalaridan foydalanishni talab qiladi. Bunda davlat o‘z siyosatini mavjud ijtimoiy holatga mos tarzda emas, aksincha, qonunlar asosida tashkil etishga erishishi muhim. Ko‘p hollarda davlat qonunlar joriy etadi-yu, ichki siyosati esa guruhlar ta'sirida bo‘ladi. Shunday ekan, hokimiyatning bo‘linishi jamiyat va fuqaro manfaatlari uchun erkinlik va adolat tamoyillarini himoya qilishga, demokratik qadriyatlarni takomillashtirib borishga qaratiladi. Fuqarolarning qonunlarni qabul qilishdagi ishtiroki, ularga muvofiq davlat hokimiyati faoliyatini nazorat eta olish imkoniyatlarining mavjudligi, jamiyatda amalga oshirilayotgan barcha jarayonlarga nisbatan o‘z munosabatlarini bildirish huquqining tashkil etilganligida o‘z ifodasini topadi. Hokimiyatlar bo‘linishi prinsiplarining tashkil topishi, avvalo, uni suiiste'mol qilishning oldini olishga, jamiyatda kuchlar o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Agar ular o‘rtasida kuchlar muvozanati ta'minlanmasa, jamiyatda erkinlik bo‘lishi mumkin emas. O‘zbekistonda hokimiyat bo‘linishi tamoyillariga amal qilgan holda 2002 yil 27 yanvarida o‘tkazilgan referendumga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi ikki palatali parlament tizimiga o‘tkazildi. Bunday o‘zgarish to‘g‘risidagi qaror mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida yangi saxifani ochib berdi. Uning natijalariga binoan Oliy Majlisning V111 sessiyasida “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Bu xujjatlar asosida Oliy Majlisning X sessiyasida "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senata to‘g‘risida” va "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar Oliy Majlis palatalarining maqomini, ularni shakllantirish tartibini, vakolatlarini, o‘zaro hamda boshqa hokimiyat organlari bilan hamkorlik qilish mexanizmlarini aniqlab berdi³².

Amalga oshirilgan mazkur islohotlar natijasida jamiyatda hokimiyatlar o‘rtasidagi muvozanatning huquqiy asoslari yaratildi. Qonun chiqaruvchi

³² Каримов И.А. Янгилашиш ва ўзгаришлар жараёни ортга қайтмайди. Олий Мажлис саккизинчи сессиясидаги маърузаси // Туркистон. 2002. 6 апр.

vakillarning nafakdt mas'uliyati balki, professional darajasi oshdi. Xududiy manfaatlar va ularning aniq, himoyachilari vujudga keldi. Hokimiyatning monopol va ma'muriy boshqaruv usulidan o'zaro teng hamkorlik uslubiga o'tildi. Ijro hokimiyati ustidan qonunga muvofiq deputat nazorati urnatildi. Senator va deputatni chaqirib olish, ayni paytda, uning maqomi to'g'risida qonunlar joriy etildi. Amalga oshirilgan siyosiy islohotlar jamiyatda siyosatning axloqiy qadriyatlarga tobora yuzlanib borilayotganligidan dalolat bermovda. Hokimiyatlar munosabatida oshkoralik, izchillik, sog'lom muxolifatchilik, partiyalar o'rtasida raqobatchilik va boshqa ko'plab demokratik tamoyillar qaror topib borayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz.

I.A.Karimovning "Biz bugungi erkinlashtirish jarayonlariga, jamiyatimizni demokratiyalashtirish natijalariga bu yo'lda erishilgan dastlabki bosqich sifatida karaymiz"³³, deydi. Davlat rahbarining adolat tamoyillariga suyanishi va shu asnoda demokratik qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan intilishi boshqaruvning axloqiy asoslarini takomillashtiradi hamda huquqiy tamoyillarga amal qilishning zaruriy mexanizmlarini rivojlantirishga imkoniyat beradi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya mamlakatimizning asosiy qonuni, hayotimiz qomusi. Unda xalqimizning adolatli davlatga, farovon jamiyat qurishga intilayotgan istiqbolining asosiy mezonlari mujassamlashgan. Konstitutsiya milliy davlatimizning, jamiyatimizning, barcha fuqarolarimizning burchini, huquqini belgilab bergan. Eng asosiysi, Konstitutsiyamiz turli millat va elatlardan tarkib toptan xalqimizning tinch, totuv hayotining huquqiy asoslarini kafolatlaydi.

Albatta, belgilangan vazifalar o'z ko'lami bilan murakkab va karama-qarshiliklardan iborat. Muammoning murakkabligi ham shundaki, biz adolatli davlatda, erkin va farovon jamiyatda yashashni xohlaymiz, ammo, ana shu xoxishga erishish turlicha yondashuvlar ta'sirida amalda ogir kechadi. Aslida bu tabiiy jarayon. Ammo, davlatning vazifasi jamiyatda turlicha bo'lgan manfaatlarni uyg'unlashtirishi bilan belgilanadi. Bunda hokimiyat va shu maqsadga qaratilgan

uning faoliyati axloqiy va xuquqiy jihatdan kafolatga muxtoj bo'ladi. Bu borada siyosiy jarayonlarni ta'minlovchi omil sifatida islohotlarning nazariy tamoyillarini amalga oshirishda "fuqaro-jamiyat-davlat" munosabatlarining uyg'unligiga erishish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 11 - moddasiga muvofiq hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunda O'zbekistonda demokratik va ijtimoiy adolatga asoslangan jamiyatning siyosiy va huquqiy negizi, avvalo, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida tashkil etish orqali erishish belgilangan³⁴. Shunga muvofiq, davlat siyosiy tizimini tashkil etish, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish lozim bo'ladi. Shu jihatdan ham Konstitutsiyada belgilangan davlat va jamiyat qurilishini amalda ta'minlash muammosi dolzarb vazifalardan sanaladi. Chunki, kuchli hokimiyat tizimi bo'lmasa, qabul qilingan qarorlar amalga oshmay qoladi. Bu esa qonun va qarorlarning ro'yobga chiqarilishida, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni turmushga tatbiq etilishida ma'lum muammolarni keltirib chiqaradi.

Ushbu masalalarning mohiyati shuni ko'rsatib kelmoqdaki, agar qaysi bir mamlakatda hokimiyat tarmoqlari o'rtasida Konstitutsiya va qonunlar bilan belgilangan siyosiy balans, ya'ni muvozanat amalda ta'minlanmasa va x,ar qaysi hokimiyat tarmog'i, bu qonunchilik, ijro yoki sud hokimiyati bo'ladimi, o'ziga yuklatilgan vakolat va vazifalarni bajarmasa, bu holat, h,ech shubhasiz, shu mamlakatda avtoritar boshqaruv usulining yuzaga kelishiga va shu ruhdagi qarorlarning qabul qilinishiga olib keladi.

Natijada davlat va jamiyat boshqaruvi bo'ladimi, iqtisodiyot yoki ijtimoiy-ma'naviy soha bo'ladimi, bularning barchasida salbiy oqibatlar, xalqning noroziligiga sabab bo'ladigan noxush vaziyatlar vujudga kelishi mumkin³⁵.

³³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси XI сессия материаллари // Халқ сўзи, 2003. -25 апр.

³⁴ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2003. - Б.11.

³⁵ Каримов И.А. Янгиланиш ва ўзгаришлар жараёни ортга қайтмайди. Олий Мажлис саккизинчи сессиясидаги маърузаси // Туркистон. 2002. 6 апр.

Davlat qurilishi jarayonlarini chuqurlashtirish va erkinlashtirish Konstitutsiyada va qabul qilingan qonunlarda ko'zda tutilgan – hokimiyatning turli tarmoqlarini bir-biridan ajratish tamoyili amalda qanday ro'yobga chiqarilayotganiga alohida e'tibor berish muhim. Davlat boshqaruvi siyosiy institutlarning demokratik tamoyillar asosida muntazam, barqaror, siyosiy muvozanatini ta'minlagan holda ishlashi lozim. O'zbekistonda siyosiy tizim tamoyillari rivojlangan mamlakatlar bilan hamohang tarzda tashkil etilishiga harakat qilib kelinmoqda. Ammo bu borada ikki asosiy muammolar mavjud, deb hisoblaymiz. Birinchisi – jamiyatda demokratik va milliy qadriyatlarni anglash darajasi bilan bog'liq bo'lgan muammolar bo'lsa, ikkinchisi - hokimiyat bo'g'inlarining alohida va mustaqil faoliyatini ta'minlashga qaratilgan xuquqiy negizlarning takomillashmaganligida hamda bu borada eski tashkiliy yondashuvlarning saqlanib kelinayotganligida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq Oliy, Konstitutsiyaviy, Xo'jalik sudlari raislari Prezident tomonidan tavsiya etilib, Oliy Majlisda tasdiqlanishi 93-moddada belgilab qo'yilgan³⁶. Masalan, Amerika Konstitutsiyasining 11-modda 2 bo'limida ham senatlar maslahati va roziligi bilan Oliy Sud raisini tayinlaydi. Bunday yondashuv xalqaro demokratik tamoyillarga mos keladi.

Keyingi yillarda sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash borasida jiddiy qadamlar qo'yildi. Jumladan, ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasida kdbul kilingan yangi taxgjidagi "Sudlar to'g'risida"gi qonun mustaqil sud hokimiyatini shakllantirish, sudlarda ish qurilishining protsessual tartiblarini mukammallashtirish orqali fuqarolarning sud himoyasiga bo'lgan huquqlarini ta'minlash borasida muhim qadam bo'ldi. Mazkur qonunda sud hokimiyatining odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatiga ijro hokimiyati aralashuvining oldini olish maqsadida umumiy yuridiksiya sudyalarining vakolatlarini to'xtatib turish yoki muddatidan ilgari tugatish masalalari bo'yicha taqdimnoma ilgaridek Adliya vaziri tomonidan emas, balki

Oliy sud raisi tomonidan kiritilishi sudyalarning mustaqilligini ta'minlashga asos bo'ldi.

Bundan tashkari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qamoqda olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"ti farmoni sud-huquq tizimini yanada liberallashtirishning eng muhim vazifasi sudgacha tergov bosqichida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini samarali himoya qilish bo'yicha sud vakolatlarini kengaytirish, eng avvalo, qamoqda olishga sanksiya berish huquqini prokuratura organlaridan sudlarga o'tkazishdan iboratdir. Ushbu chora fuqarolarning erkinlik va shaxsiy daxleizlik borasidagi konstitutsiyaviy huquqlari himoya kilinishi samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga bu shaxsning huquq va erkinliklari daxleizligi hamda ulardan sud qarorisiz maxrum etishga yoki ularni cheklab kuyishga hych kim haqli emasligi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga ham to'la mos keladi³⁷.

Bugungi kunda sudyalarni tanlash va lavozimga tavsiya etishda jamoat nazoratini urnatish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzurida Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining faoliyat yuritishi to'g'risidagi norma kiritilgan. Ushbu qonunga muvofiq., sudyalarning zaxirasi sudlarning, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, muassasalar, tashkilotlar, sudyalarning jamoatchilik birlashmalari a'zolarining taklifi asosida sudyalarning malaka hay'atlari tomonidan shakllantiriladi. Sudyalik lavozimga nomzodlar haqidagi takliflar sud departamentida jamlab boriladi, uning zimmasiga sudyalik lavozimga nomzodlarning xujjatlarini yig'ish va tayyorlash, sud kadrlari malakasini oshirish vazifasi yuklatilgan.

Umuman, O'zbekistonda sud tizimi sohasida va sudyalarning tanlash borasidagi yo'nalishlar rivojlangan davlat tizimiga o'tgan. Ammo bunday yondashuvlar oxirigacha ishlanmagan. Masalan, Sh.Umarova - "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 70-moddasida sudyaga nisbatan jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi Bosh

³⁶ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2003. - Б. 23.

³⁷ Халқ сўзи. 2005. -9 авг.

prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan³⁸, deydi. Darhaqiqat, agar masala Oliy sud plenumi vakolatidan tashqari bo'lsa, unda sudyaning daxlsizligi va mustaqilligi nisbiy ko'rinish kasb etishi mumkin. Ko'rinish turibdiki, bu masalani, takomillashtirish ehtiyoji mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezident I.A.Karimov tomonidan (2006 yil 9 noyabrda) e'lon kilingan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya kiliqda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi, avvalo hokimiyatning vakillik va ijro etuvchi organlari munosabati muvozanatlarini, siyosiy partiyalar hamda harakatlarning faol ishtiroki uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratishga, mavjudlarini takomillashtirishga, davr talabiga mos ravishda yanada tartibga solishga qaratilgan.

Bu borada markazda va joylarda ijro etuvchi organlarni tashkil qilishda hokimiyatning qonun chiqaruvchi va vakillik organlaridan o'rin olgan siyosiy partiyalar, shuningdek, deputatlar mustaqil guruhlarining bevosita ishtirok etishi hamda shu tarifa uz dasturiy maqsadlarini amalga oshirishi masalasiga muhim amaliy va harakatlantiruvchi omil sifatida jiddiy e'tibor qaratish imkoniyati yaratildi.

Hukumat tuzilmalarining, markazdagi va joylardagi davlat hokimiyat organlarining mamlakat parlamentida o'z vakillariga ega bo'lgan siyosiy partiyalar, maxdliiy vakillik organlaridagi partiya guruhlarida oldida hisob berishini belgilab beradigan va ta'minlaydigan samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish ko'zda tutilgan³⁹. Bu O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarning uzviy davomi, ayni paytda demokratik tamoyillarga sodiqlik ifodasi bo'lib hisoblanadi.

Davlat boshqaruvini aniq, mukammal, sodda va qat'iy qonunlar asosida amalga oshirishga intilish fuqarolarni ham shu intizom asosida tarbiyalash, unga rioya ettirish, safarbar etish, jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirishga olib keladi.

³⁸ Умарова. III. Суд ислохотлари йўлида //Жамият бошқаруви. 2004. - № 2. - Б.

³⁹ Халқ сўзи. 2006, 9 нояб.

Inson uz huquqlarini bilib, anglagan holda ijtimoiy hayotning bunyodkoriga aylanadi. Agar insonda majburiylikdan huquqiylikka utish salohiyati yetarli bo'lmasa, u majburiylik ta'sirida qolib kelaveradi. Shu o'rinda mutafakkir olim, K.Poppening fikrlari ibratli, deb hisoblaymiz. Jumladan, u shunday deydi: "Agar inson bo'lib qolishni istasak, oldimizda faqat bitta yo'l bor. Bu ochiq jamiyat yo'li. Biz barcha mavjud aqliy salohiyatimizdan foydalangan holda noma'lum, murakkab, ba'zan xavfli yo'lda erkinligimiz va xavfsizligimizni iloji boricha ta'minlab borishdan to'xtamasligimiz lozim"⁴⁰. Darhaqiqat, millat, inson o'z erkinligini anglashi va shu erkinlikni idora etish e'tiqodiga hamda salohiyatiga ega bo'lolsagina axloqiy qadriyatlar uning kamoliga hizmat qo'shadi.

2.3. Siyosat va axloq muvozanatini ta'minlashdagi yutuqlar va muammolar.

Jamiyat boshqaruvida axloqiy qadriyatga rioya etish, avvalo, millatning o'z qadriyatlarini, an'ana va udumlarini, huquqiy-me'yoriy talablarini nechog'li darajada tartibga sola olishida va ularga sodiqlik kabi tushunchalarning amaliy ifodasida namoyon bo'ladi. Bunday axloqiy qadriyatlar jamiyat manfaati nuqtai nazaridan ba'zan majburiylik ko'rinishlarini ham kasb etadi. Davlat funksiyasiga xos boshqaruv me'yorlarining tashkiliy tartibi fuqaro, jamiyat va davlat manfaatlarining bir maromda barqaror hamda uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Davlatning bu boradagi majburiylik yondashuvi mavjud siyosiy - iqtisodiy sharoitlar darajasi bilan ham bevosita bog'liq bo'ladi. Ammo boshqaruv munosabatlarining har qanday sharoitda axloqiy qadriyatlarga amal kilinishi va uning huquqiy mezonlardan chiqib ketmasligi kadrlar salohiyatidan foydalanishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Shu kabi boshqaruv bilan bog'liq muammolarni yechish va ularni kamaytirishga bo'lgan o'rinish, unga salohiyatli rahbar shaxslarni safarbar etish demokratik jarayonlar rivojining samaradorligini ta'minlashga imkoniyat beradi. Siyosat va axloq muvozanatini ta'minlashning mavjud tartiblarini tarixiy, milliy xususiyatlarga bog'liq holda

⁴⁰ Алимардонов Т. Жамиятда сиёсат ва ахлоқ мувозанати муаммолари. Сиёсий. фанлар д-ри. автореф.-Т.: 2006. –Б.16.

o'rganish, hamda davlat va jamiyat boshqaruvining axloqiy mezonlarini tashkil qilish muhimdir.

O'zbekiston o'z mustaqil taraqqiyoti asoslarini yaratish va uni ijtimoiy turmushda qaror toptirish borasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu jarayonlar o'z mohiyat-mazmuni bilan murakkab, turli siyosiy tizimlar uyg'unligini talab qiladi. Shulardan biri kadrlar siyosati hisoblanadi. Kadrlar siyosati har qanday davlatda eng muhim va muntazam e'tibor talab etadigan masala. Zero, har qanday jamiyatning siyosiy hayoti hamda islohotlar rivoji rahbar kadrlar salohiyati bilan bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, bozor iqtisodi sharoitida talab kilinayotgan yangi demokratik jarayonlarni boshqarish respublikamiz rahbar kadrlari oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Bu boshqaruv usullarida rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini qo'llash, uni milliy xususiyatlar bilan uyg'un tarzda takomillashtirishni taqozo etadi.

Kadrlar siyosati borasida nazariy asoslar davlat xizmatchisi asoslarini sifat jihatdan o'zgartirishni talab qiladi. Ma'lumki, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi malakali, tajribali, bilimli mutaxassislar bir necha yillar ichida shakllanadi. Ularning iqtidori mavjud davr talablari asosida rivojlanishi uchun ancha mablag' ham talab qilinadi. Davlat siyosatida ushbu masalaning muhimligini inobatga olmaslik ijtimoiy taraqqiyotni ko'proq davrga mos turg'un bo'lishiga yoki aksariyat hollarda intellektual resurs boshqa davlatlarning ixtiyoriga jalb kilinishiga sabab bo'ladi.

Mavjud muammolarning muhimligini inobatga olgan holda kadrlar siyosati bilan bog'liq. muammolar mohiyatini ochishga e'tibor qaratish lozim.

Birinchidan, boshqaruv kadrlariga jamiyat taraqqiyoti rivojida intellektual resurs sifatida qaralishi va ular milliy boylikning muhim qatlami sifatida himoyalinishiga bog'liq.

Ikkinchidan, inson va jamiyat ehtiyojlarini yuksaltirish borasida kadrlar salohiyati jamiyat taraqqiyoti rivojini belgilovchi muhim omilga aylangan. Bunday islohotning tashabbuskori barcha hollarda davlat hisoblanadi. Shuning uchun kadrlar salohiyatining axloqiy mezonlari siyosat darajasida belgilanishi lozim. Bu

o'z o'rnida davlatning kadrlar siyosatiga bo'lgan munosabatini hamda darajasini belgilaydi.

Uchinchidan, bugun kadrlar salohiyati va sifatini oshirish hamda uning tasnifini belgilash kamlik qiladi. Ulardan amalda foydalanishning huquqiy shart-sharoitini yaratish va tadbik etish lozim bo'ladi. Kadrlar siyosatining muhim shundaki, u davlat ishchi, xizmatchilari uchun emas, mamlakatning aqliy va axloqiy salohiyatini jamiyat taraqqiyotiga yo'naltirishdan iborat bo'lmog'i zarur.

Shu ma'noda demokratik jamiyatning shakllanishi nafakdt siyosiy-huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar bilan, ayni paytda, tafakkur o'zgarishlari bilan ham bog'liq jarayondir. Ularning uyg'unligiga erishilgandagina taraqqiyot rivojini tezlashtirishga sharoit tug'iladi. Bunday uyg'unlikni ta'minlovchi asosiy omil esa yuksak malakali, axloqiy jihatdan yetuk kadrlarning jamiyat boshqaruviga kelishida o'z aksini topadi. Umuman, biz nazarda tutayotgan uyg'unlik, avvalo, jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy tizimning nechog'li darajada adolatli, izchil va xalqchil ifodasi bilan bog'liq, Qolaversa, bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tish - bu eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurash, aniqrog'i o'zgargan, ammo yangi manfaatlar to'qnashuvi hamdir.

Respublikamizda olib borilayotgan isloxlarni davlat va xalq manfaati yo'lida izchillik bilan amalga oshirish davr talabi bo'lib, bu borada iktidorli, izlanuvchan, zamonaviy bilimga ega, Vatanga sadokatli yoshlarga keng yo'l ochib berishimiz shart. Demak, mavjud ijtimoiy muammolarni yecha oladigan, avvalo, uni teran anglaydigan islohotlar jarayonida jonkuyarlik kila oladigan, ma'naviy-axloqiy barkamol, qodir shaxslarni boshqaruv bo'g'inlariga ko'proq jalb etish asosiy va bosh masala hisoblanadi.

Boshqaruvni anglagan va o'zlashtira olgan rahbarlar tabiatan e'tiqodli, fidoyi, bilimli, yangilikka chanqoq, izlanuvchan va yaratuvchilik sifatlariga ega bo'ladilar. Rahbarlik shu toifadagi kishilar uchun o'z imkoniyatlarini amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Ular o'z faoliyatlarida qanchalik ko'p bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lsalar, undan shunchalik ozuqa oladilar. Bunday shaxslar oriyatli, qat'iyatli, o'zgalar dardini ichidan his qilib ularga hamdard bo'la oladigan

va saxovatligi bilan ajralib turadigan insonlardir. Intizom va tartibga alohida e'tiborda bo'lib, noaxloqiy munosabatlarni xush ko'rmaydilar. Bunday rahbarlar, ayni paytda, ichki, yashirin ixtiloflarni yoktirmaydilar, uni tez bartaraf etish qudratiga, muammolarni chuqur anglash va uni hal etish salohiyatiga ega bo'ladilar. Ushbu toifadagi rahbar kadrlar muayyan bir guruhlariga qo'shilmaydi. O'z raqiblariga murosasiz munosabatda bo'lib, faoliyatidagi to'siqlarni yengib o'tish ular uchun hayotiy muhim masala hisoblanadi. Ba'zan vazminlik o'rnida o'jarlik, kamtarlik o'rnida manmanlik qilishlari ham mumkin, ammo vazifalarini o'zlaridan ustun qo'ymaydilar. Tobelik yoki mutelikni o'z tabiatlariga singdira olmaydilar. Favkulodda o'zgaruvchan, ba'zan uz manfaatlarini ham inkor etuvchi bo'ladilar. Bu toifadagi odamlar ikki guruhga bulinadi. Birinchisi toifadagilar ujar, tajang bo'lsa, ikkinchi toifadagilar muloxazali va andishali bo'ladilar. Ayni paytda, ular bir-birlarini tuldiradilar va ma'naviy jihatdan hamnafas bo'ladilar. Ular fidoyiligining asosi ham shunda.

Yangicha boshqaruvga moslashgan yoki andoza olgan rahbarlar e'tiqodi zaif, ammo bilimli, zukko, yangilik yoki siyosiy voqyelikni tez anglovchi, o'ta ehtiyotkor bo'ladilar. Mavjud voqyelikdan axloq qidirmaydilar, aksincha unga moslashadilar. Ba'zan uni takomillashtiradilar ham. Ular o'z faoliyatlarida siyosiy xushyor, bosiq, sabr-toqatli bo'lib, shijoat, tashabbus o'rnida turg'unlikni afzal ko'radilar, yaratuvchilik yoki bunyodkorlikni maqsad qilmaydilar. Ayrim hollarda, vaziyat uzi uchun kaltis yoki xavfli bo'lmasa, tashabbuslar qilishi ham mumkin. Bunday holatdan mayorat bilan foydalana oladilar. Bu toifadagi odamlar o'zaro munosabatlarida muloxdzali, madaniyatli, ba'zan yaxshi taassurot qoldiradigan hozirjavob, hojatbaror, mahoratli ijrochi bo'ladilar. Bunday ijobiy sifatlari bilan o'z mansab pillapoyalarini ko'tarib yoki mustahkamlab boradilar. Tabiiy hususiyatlariga ko'ra, bu toifadagi kishilar ham ikki guruhga bo'linadi. Ya'ni, birinchi guruhdagilar ancha beandisha, zug'um va zo'ravonlik qilishga moyil, o'z maqsadlariga erishish uchun har qanday vositalarni ishlatishga qodir bo'ladilar. Ikkinchi toifadagilar esa, shu sifatlari bilan ancha ma'rifiydirlar. Yangicha boshqaruvni anglamagan ijrochi rahbarlar ma'naviy va ma'rifiy jihatdan ancha

sayoz kishilar hisoblanib, buysunuvchan, ergashuvchan, irodasizligi tufayli mas'ul kishilar yoki guruhlar manfaati yo'lida xizmat qilib, o'z ehtiyojlarini ta'minlab turadilar. Bu toifadagi kishilar kuyi yoki ijrochi boshqaruvlarning barcha bo'g'inlarida "kerakli va ishonchli odam" sifatida faoliyat ko'rsatadi. Chunki ular o'z fikrlariga yoki nuqtai nazarlariga ega bo'lmaydi. Ba'zan tasodifan yoki ma'lum guruh manfaati uchun mustaqil darajadagi rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi ham mumkin. Ular yuqorida ta'kidlanganidek, individual alohida shaxsiy sifatlarga yoki qobiliyatlarga ega emas. O'ziga xos harakat vazifalari va faoliyatlarini mavjud sharoitga moslashtiradi yoki andoza olib taqlid bilan harakat qiladi. Shu sababdan, bu toifadagi kishilarning boshqa guruhleri bo'lmaydi. Eng salbiy jihatlari shundan iboratki, ular har qanday qabih, g'irrom, ahloqsiz ishlar bilan ikkilanmasdan shug'ullanadi. Bunday rahbar kishilar jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirishga emas, aksincha tarqoqlashtirishga sababchi bo'ladilar. Boshqaruv rahbarlik bo'g'inlarining shu toifadagi kishilar qo'lida bo'lishi ijtimoiy vaziyatni izdan chiqishiga, o'zaro ixtilof va nizolarning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Masalaning axloqiy jihatlari bilan birgalikda uning ijtimoiy va siyosiy xususiyatlariga ham to'xtalib o'tish muhim. Jumladan, har qaysi davrda hokimiyatga intilish, uning vositalariga ega bo'lish istagi saqlanib qoladi. Bosh masala mana shu intilish va istaklarning qay darajada axloqiyliigi va qonuniyligi ta'minlanganligidadir. Jamiyatda hokimiyatga intilish oshkora, aniq belgilab qo'yilgan mezonlar va talablar asosiga ko'rilmas ekan, unga erishishning noaxloqiy, hufiyona ko'rinishlari saqlanib qoladi. Davlat tizimi asoslariga katta zarar yetkazuvchi to'rachilik, ta'magirlik, korrupsiya, poraxo'rlik kabi illatlar kuchayib boradi. Bugungi o'tish davrining o'z talablari va imkoniyatlari mavjud. Respublikamiz iqtisodini mustahkamlash, jamiyat barqarorligini ta'minlash kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda har bir rahbar kadrlardan yuksak e'tiqodni, fidoyilikni va sadoqatni talab qiladi. Qolaversa, mavjud o'tkinchi iqtisodiy qiyinchilik davrida hiech qanday rahbarning o'z vazifasini suiiste'mol qilishiga yo'l bermaydi. Aksincha, jamiyat va davlat boshqaruvining asoslarini

mustahdamlash mas'uliyatini yuklaydi. Shu o'rinda rahbar kadrlarning salohiyat sifatlarini aniqlovchi va belgilovchi mexanizmlarni boshqaruvning turli soha va xususiyatlariga muvofiqlashtirgan holda amalda joriy etish zarurligi ko'rinib turibdi. "Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, davlat xizmatchisining axloqi nafaqat uning muvaffaqiyatlariga, balki davlatning obro'siga ham kuchli ta'sir bo'ladi"⁴¹, deydi A. Begmatov. Afsuski, mamlakatimizda, yutuqlar barobarida davlat boshqaruvidagi rahbar xodimlarning turli darajada o'z xizmat vazifasini suiiste'mol qilish holatlari uchrab turibdi. Mavjud illatlarning ijtimoiy sabablarini aniqlash, ularni keltirib chiqarayotgan omillarni tahlil etish davlat va jamiyat boshqaruvining ayrim zaif tomonlarini oydinlashtirishga yordam bergan bo'lar edi. Davlat boshqaruvi muntazam ravishda tahlil etib borilishi va uning faoliyat natijalari tegishli xulosalar bilan mustahkamlanishi lozim. Chunki, jamiyat rivoji va bugungi kunda qo'yilayotgan talablar bizning ixtiyorimizdan tashkari har davda o'zgarib turibdi. Shunday ekan, boshqaruvchi faoliyatini nazariy jihatdan tahlil qilib borishga e'tiborni kuchaytirishimiz zarur.

Davlat va jamiyat boshqaruvida axloqiy tamoyillarning aniq ishlab chiqilgan me'yoriy mexanizmlari mavjud bo'lsa, bunday sharoitda boshqaruvga istiqbol va istiqloq tuyg'ulari kuchli bo'lgan zamonaviy, shijoatkor kadrlar kelishi ortib boradi. Ya'ni, kadrlar tanlashning aniq mexanizmlari sog'lom rakrbatni shakllantiradi, ular sifatini oshiradi, boshqaruvda kadrlar vorisiyligini takomillashtiradi. Kadrlar salohiyatini belgilovchi me'yoriy mezonlarning joriy kilinishi va unga amal etilishi salohiyatsiz bo'lgan kadrlarning bir necha yillab boshqaruv kursida o'tirib qolishining oldini oladi. Kadrlarni tartibga solish tizimi jamiyatda paydo bo'ladigan ilg'or fikrlarni davlat siyosati darajasida aks ettirish jarayonining uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi. Turg'unlik esa, ma'lumki, har qanday yangilikning rivojini tusuvchi omil. Shu tariqa davlat boshqaruv idorasiga "tirikchilik manbai" emas, balki axloqiy, mas'ul shaxslarning xalqda xizmat qilish vositasi sifatida qarash tendensiyasi ko'proq shakllangan bo'lar edi. Aynan ana shu munosabatlarda siyosiy axloq muvozanatini ta'minlash muammolari kelib chiqdi.

⁴¹ Бегматов. А. Давлат хизмати одоби // Жамият ва бошқарув, 2004. - № 3. - Б. 8.

Prezidentimizning mustaqillik yillarida Navoiy, Qashkadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Andijon viloyatlari Xalq deputatlari Kengashlarida qilgan ma'ruzalarini tahlil etadigan bo'lsak, boshqaruv hamda kadrlar tizimidagi jiddiy nuqson va illatlarning saqlanib kelayotganligiga guvoh bo'lamiz. Viloyatlarda ayrim xo'jalik va tashkilotlarning lavozimlariga rahbar tayinlashda tanish - bilishchilik, urug' - aymoqchilik, oshna - og'aynigarchilik, mahalliychilik kabi illatlarga yo'l qo'yilganligi hamda rahbar kadrlarni tanlashda rahbarning sub'ektiv ta'siri asosida amalga oshirilganligi ma'lum bo'lmoqda. Viloyatlarda shu kabi nosog'lom munosabatlar ishlab chiqarishning barcha tarmoqlariga kirib borgan. Natijada ijtimoiy adolatsizlik kuchayib borgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1 bob 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar"⁴² deyiladi. Ammo ana shu mas'uliyatni "eslatish" borasidagi rahbarning javobgarligi xudum jihatdan qanchalik darajada mustahkamlangan. Bunday munosabatlar qonun bilan asoslanishi lozim. Agar amalda rioya etiladigan huquqiy tartib sifatida yondashilmas ekan, unga amal qilmaslik imkoniyati saqlanib qolaveradi. Ikkinchidan, qattiq intizom va tartib yo'lga qo'yilgan joyda zaif kadrlar ishlay olmaydi. Ularning zaifligi va salohiyatsizligini yashiradigan, qonunsiz harakatlarning imkoniyatini kengaytiradigan omil aslida huquqsizlikdir. Rahbar kadrlarning mana shunday hufiyona faoliyati fuqarolar orasida davlat tashkilotlariga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Aynan ana shunday kamchiliklar tufayli uz vazifalaridan ozod etilgan rahbarlar, afsuski, gorizonttal ravishda boshqa lavozimlarda rahbarligini davom ettirayotganligi jamiyatda huquqlarimizga bo'lgan ishonchsizlik kayfiyatining usishiga olib keladi.

Shuning uchun viloyat, tuman, boshqa muassasalarning mansabdor shaxslari va ularning faoliyatidagi nuqsonlar hamda illatlar mohiyatan bir xil ko'rinish kasb etib kelmoqda.

⁴² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон. 2003. - Б. 9.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq siyosiy rahbar yoki yetakchi uz harakatlari uchun shaxsan javobgar shaxs hisoblanadi. Bunday mas'uliyat undan ma'lum axloqiy va ma'rifiy yuksak tarbiya hamda e'tiqodni talab qiladi. Shu ma'noda amaldorlarning intizomi, o'z ishiga xalol yondashuvi, professional mahoratning axloqiy ko'rsatkichlarini tashkil etuvchi mezonlarni joriy etish zarurati sezilmoqda.

Davlat xizmati faoliyatida adolat yakka shaxsning irodasi yoxud simpatiyasi bilan belgilanmasligi muhim. Adolat mezonini belgilashda murosasiz huquqiy talablar qo'yilmog'i zarur. Zero, adolat to'g'risidagi shaxsiy ideallar va qarashlar axloqiy mezonga aylanmasligi lozim.

Ma'lumki, adolat o'zgalarning huquqini buzmaslik sharti bilan yaratilgan tenglik sharoitidir. Undan chiqdi, adolat teng mas'uliyat va intizomiy munosabatlarni talab qilar ekan. Shunga qaramasdan, huquq va axloq o'rtasidagi mezonni aniq belgilash talab etiladi. Bunday mezon jamiyatning ma'naviy salohiyati orqali tashkil etilgan huquqiy vakolatlar hisoblanadi. Jamiyatda huquq orqali emas, ma'naviyat orqali huquqiy munosabatlar ustuvorligiga erishilishi lozim. Fuqarolar uz ijtimoiy faoliyatlarida huquqli hurmat qilishlari orqali huquqiy talablarni ta'minlaydilar.

Shu o'rinda ko'rib chiqmoqchi bo'lgan mavzumizning yana bir muammosi kadrlar siyosati va uning bugungi kun ijtimoiy jarayonlar tizimidagi muammolari.

Totalitar tuzum qoidalariga asoslangan jamiyatda mulkning xilma-xilligi inkor etilib, "umumxalq" mulkining joriy etilishi insonning tabiiy mulkka bo'lgan tuyg'usiga karama-qarshi ekanligini ko'rsatdi. Bunday holatda inson o'z istak va mayllarini qanday bo'lmasin, mulkka egalik qilish va erishish istagini qondirish maqsadida ba'zan har qanday g'irrom va axloqsiz harakatlarga kirishadi. Vosita sifatida hokimiyatni tanlaydi. Natijada jamiyat fuqarolari uchun bunday g'ayriqonuniy axloqsiz holat tabiiy "tirikchilik" manbaiga aylanadi. Sobiq tuzum davrida ta'magirlik, yulguchlik, davlat mulkini talon-taloj qilish, korrupsiya, zuravonlik, beandishalik kishilar turmush tarzining ustuvor xususiyatlari bo'lib kirdi.

Albatta, bunday ijtimoiy holat axloqsizdir, ammo masalani chuqurroq tahlil qilsak, mutlaqo ziddiyatli holatlar kelib chiqadi. Jumladan, davlat boshqaruvida uning tartib va qonunlarida inson manfaati, uning orzu-intilishlari ikkinchi darajali, deb qaralgan. Shaxs tashabbusi, salohiyati, uning bevosita jamiyatga nisbatan manfaati inobatga olinmagan. Har qanday holatda mehnat taqsimoti teng va bir xilda belgilangan. Ya'ni, mehnatning samaradorligidan kat'iy nazar belgilangan tariflar mavjud bo'lgan. Umuman, fuqarolar davlat uchun vosita sifatida qaralgan va ularning barcha harakati faqat hukmron mafkura maqsadiga buysundirilgan. Shubhasiz, bunday nosog'lom munosabatlar manfaatlar karama-qarshiligini keltirib chikarib, fuqarolar qonuniy yo'l bilan ololmagan ulushlarini qonunsiz ravishda amalga oshirganlar. Aynan shu tariqa axloqsizlik jamiyatda ustuvor yoki "xaloskor" vosita sifatida shakllangan.

Jamiyatda tanish-bilishchilik zaruriy bir vositaga aylanib ketganki, usiz ko'p hayotiy yumushlar yechimini tasavvur qilish mushkul bo'lgan. Kim nima ish qilmasin, albatta, tanish-bilish orqali amalga oshirgan. Ba'zida esa kim biror bir ishni uzi xal kilsa yoki nimagadir uzi erishea, albatta, mingtadan yakka hodisa sifatida namuna qilib ham ko'rsatilgan. "Tanish-bilish" tushunchasi, albatta salbiy fikr uyg'onadi. Ammo, rasman tanish-bilishchilikni qoralangan, amalda esa undan foydalanilgan. Agar kechagi kun nuqtai nazaridan qarasak, tanish-bilishchilik illatligini inkor etib bo'lmaydi. Bunday holat bugun ham ijobiy hodisa emas, uning sabablarini hali o'zgarib ulgurmagan kechagi tuzumning iqtisodiy va siyosiy negizidan izlamoq kerak.

Yuqorida keltirilgan fikrlar mavjud muammolarning siyosiy-falsafiy tahlilidir. Ularninig siyosiy-axloqiy texnologik tashkiliy yechimlariga to'xtalinsa, kadrlar siyosatida siyosiy axloq texnologiyasi davlat boshqaruvidagi barcha bo'g'inlarning o'zaro bir maromda muvozanat darajasida ishlashini takomillashtirishga qaratiladi. Boshqaruv huquqiy asoslarining kundalik turmushga ta'siri, samarasini aniqlash imkoniyatini beradi. Albatta siyosiy texnologiyani nima tashkil etadi degan savol tugiladi. Siyosiy axloq texnologiyani davlat va jamiyat boshqaruvini o'rganuvchi fanlar hamda unga bog'liq amaliy faoliyatlar, uslublar,

tizimlar tashkil etadi. Bunday jarayonning yo‘qligi boshqaruvning zo‘ravonlik usulini takomillashtiradi. Zuravonlik usuli ma'lum natijalarni berganday tuyulganligi bilan uning oqibati boshqaruvda ko‘plab salbiy illatlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Siyosiy texnologiya esa davlat boshqaruv tizimida sog‘lom raqobat munosabatlarini shakllantiradi, uning huquqiy asoslarini rivojlantiradi. Rahbar shaxs ma'naviyati esa huquqiy boshqaruv usullari orasida muvozanatni ta'minlovchi bo‘g‘in bo‘lib hisoblanadi.

Davlat xizmatchilari faoliyatini siyosiy axloq talablariga muvofiqlashtirish borasida rivojlangan demokratik mamlakatlarning katta tajribaga ega ekanligini e'tirof etish lozim. Bu borada asosiy e'tibor siyosiy hokimiyat faoliyatini axloqiy qoidalar negizida qurishga qaratilgan tizimiy yondashuv va mexanizmlarning shakllanganligida kuzatish mumkin. Masalan, Fransiya, Angliya, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Argentina yoki kechagini “sotsializmdan” qutilgan Chexiya, Polsha va boshqa ko‘plab Lotin Amerikasi mamlakatlarida ham davlat xizmatchilari faoliyatining axloqiy normalari bevosita siyosiy hokimiyat tizimiga kiritilgan. Masalan, Angliyada “Parlament a'zolarining “Axloqiy kodeksi” parlamentning xalq oldidagi obruyini, ishonchini saqlashga qaratiladi. Uning sha'niga dog‘ keltiradigan hyech qanday harakat bo‘lmasligi rasmiy tartibda belgilangan. “Axloqiy kodeks” bir kancha talablarni me'zon sifatida tizimlashtirgan. Birinchidan, deputatning moliyaviy daromatlarini deklaratsiyami to‘ldirishni taqozo etadi. Ikkinchidan, manfaatlar konflekti mavjud bo‘lgan sharoitda deputat ovoz berishda ishtirok etmaydi va bu to‘g‘risidagi masalani qurishdan avval yoshma ravishda ma'lumot berishi lozim. Uchinchidan, deputatlik davri mobaynida davlat xizmati vazifalarida ishlamasligi ko‘zda tutilgan. Bunday tartib O‘zbekistonda ham mavjud. To‘rtinchidan, deputat yoki vazir vakolati muddati yakunidan so‘ng davlat idoralarida, davlat kompaniyalarida, firma va banklarida belgilangan muddatgacha (AQShda 1 yil, Janubiy Koreyada 2 yil) hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy manfaatlarda foydalanmaslik uchun ishlashi mumkin emas. Beshinchidan, deputatning sovg‘alar olishi masalasi tartibga solingan. Masalan, AQShda 50 dollardan ortik qiymatdagi sovg‘alarni olish

taqiqlanadi. Oltinchidan, OAV davlat xizmatchilari tomonidan axloqiy normalarning bajarilishini nazorat etib turuvchi mexanizm sifatida shakllantirilgan.

Albatta, axloqiy normalarning ta'siri va uning samaradorligi ma'lum mexanizmlar asosida tashkil etiladi. Bunday mexanizm ko'plab davlatlarda mustaqil davlat organi vakolatida "Etika masalalari bo'yicha komissiyalar" deb yuritiladi. Masalan, Tayvanda "Axloqiy tartib nazorati", Hindistonda "Korrupsiyaga qarshi kurash", Argentinada "Jamoatchilik axloq milliy boshqarmasi", Angliyada "Axloqiy masalalar bo'yicha vakillik", AQShda "Etika bo'yicha qo'mita" tashkilotlari siyosat va siyosiy arboblarning faoliyatining axloqiylikini nazorat qiladi. Ushbu komissiyalar turli xil tartibda tushgan ariza va shikoyatlarni o'rganadi hamda tegishli tartibda choralarni belgilaydi. Choralar xayfsandan tortib, jarima, deputatlik vakolatidan maxrum etish va jinoiy javobgarlikka topshirish masalalarigacha belgilangan. Ayni paytda, davlat xizmatchilarining axloqiy normalari bilan tanishtirish, ularning mohiyatini tushuntirish, tugilishi mumkin bo'lgan buxton va majorolarning oldini olish maqsadida maslahat qo'mitalari tashkil etilgan. Masalan, xususiy firma vakili tomonidan mexmonga taklif etilgan kongressmen dasturxon kiymati 50 dollardan oshsa, tartibga ko'ra uni mehmon to'lashi lozim. Aksi holda kongressmen "Axloqiy kodeksni" buzgan hisoblanadi va javobgarlikka tortiladi⁴³.

Shu o'rinda masalaning ayrim jihatlarini oydinlashtirib ketish zaruroti mavjud. Jumladan, axloqiy kodeks bilan jinoiy kodeksning funksiyalari ikki xil. Ya'ni, axloqiy kodeksni buzgan davlat xizmatchisiga nisbatan u yoki bu tartibda ma'muriy javobgarlik choralari kuriladi. Agar uning takibida jinoyat alomatlari bo'lsa, komissiya taklifi va parlament roziligi bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi. Albatta, axloqiy qoidalarni ishlab chiqishda davlatlarning milliy xususiyatlari inobatga olinadi. Ayrim davlatlarda sovga berishning ramziy xususiyatlari bor. Ammo, agar milliy xususiyatlar siyosiy axloq tamoyillariga zid keladigan bo'lsa, ayni paytda, siyosiy hokimiyat faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa,

⁴³ Равшанов Ф. Давлат хизмати XX асрда. // Жамият ва бошқарув. 1999. № 1-2. - Б. 16.

mamlakatda korrupsiyaning usishiga olib kelsa, unda bunday illatni siyosat vositasi bilan ma'rifiylashtirish lozim bo'ladi.

Bunday tajribalarning biz uchun muhim jihatlari shundaki, asosiy masala mutaxassislarning xizmat pillapoyalarida kutarilib borishining axloqiy me'yorlarini tashkil etish, ishdan bo'shatishda sub'ektivizmdan saqlanish, urug'-aymoqchilik negizida yetkazilishi mumkin bo'lgan ziyonning oldini olish, davlat organlari tomonidan tovar va xizmatdan foydalanishning yukrii darajasini reglamentatsiyalash, tuzilgan shartomalarning asoslanganligini qayta-qayta tekshirish va nazoratda tutib turish kabi vazifalarni amalda joriy etish mumkin.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida” qonunning 11-moddasida deputtalik va senatorlik odobi bo'yicha bandlar kiritilgan. Parlamentlar yigilishida 4-moddaga muvofiq agar “deputat, senator degan yuksak nomga dog' tushiruvchi xulq-atvor”ga hilof ish qilgan bo'lsa, deputat yoki senator vakolat muddatidan oldin huquqlaridan maxrum etilishi ko'zda tutilgan⁴⁴. Ushbu tartibning ijrosi “Xalq deputatlari maxalliy Kengashi deputatini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a'zosini chaqirib olish to'g'risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni 1 va 2-moddalarida inobatga olingan. Ya'ni, deputatning, senatorning axloqi, deputatlik odobining umum e'tirof etilgan normalarini qo'pol ravishda buzuvchi va deputat, senator nomiga dog' tushiruvchi hamda davlat hokimiyati vakillik organlarining obrusiga putur yetkazuvchi harakatlar, nojo'ya ishlar deputatlik odobi qo'mitasi tomonidan o'rganilib chiqiladi va parlament muhokamasiga taqdim etiladi hamda tegishli tartibda hukm chiqariladi⁴⁵.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi olimlari tomonidan tayyorlangan ilmiy takliflar davlatimiz kadrlar siyosati mezonlarini shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Jumladan,

⁴⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис қонунчилик палатаси депутатининг ва Сенати аъзосининг мақоми тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг қонуни // Халқ сўзи. 2005. 27 янв.

utish davrida davlatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga oluvchi, ayni vaqtda, strategik vazifalarni hal qilish jarayoni izchil va bosqichli ekanligini belgilaydigan omillar berilgan. Ular kadrlar bilan ishlashning maqsad va tamoyillarini aniq ifoda etish birligiga asoslanib, kadrlar ishiga doir iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ma'naviy, sotsial-psixologik va boshqa masalalarni hal qilish imkoniyatini hisobga olgan.

Respublika miqiyosida yagona, ayni vaktida, ko'p tarmoqli kadrlar korpusi faoliyati bilan bog'liq turli jarayonlarni e'tiborga olish, bu jarayonlarga davlat ta'sirini o'tkazish mexanizmlarini qamrab olish lozimligi ko'rsatilgan. Eng muhim jihatlari sifatida kadrlar siyosati maqsad va mazmuniga ko'ra demokratik bo'lishi, har bir xodimda, ayniqsa, davlat xizmatchisida insonparvarlikni, halollikni, topshirilgan ish uchun mas'uliyatni va shaxsiy xulq-atvor uchun javobgarlikni tarbiyalaydigan, masalalarni ob'ektiv va adolatli hal qilishning huquqiy kafolatini yaratuvchisi bo'lish lozimligiga alohida to'xtalib o'tilgan⁴⁶.

Ko'rinib turibdiki, kadrlar siyosatini nazariy va amaliy jihatdan yangi zamon talablari asosida tashkil etishning ilmiy imkoniyatlari ancha shakllanib bo'lgan. Masala uni amalda joriy etishning siyosiy, huquqiy va moliyaviy asoslarini tashkil etish bilan bog'liq tamoyillarni hokimiyat boshqaruvida uyg'unlashtirishdan iborat.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kadrlar siyosati yoki uning tizimini tashkil etish ijtimoiy-sotsial hamda siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy-psixologik komponentlarni qamrab olishi zarur. Ulardan birini oldin va ikkinchisini keyin amalga oshirishga o'rinish samara bermaydi. Davlat kadrlar siyosati masalasiga kompleks tarzda yondashuvni talab qiladi. Albatta, masalaning mohiyatiga yetish va uning barcha kirralarini inobatga olish nixoyatda murakkab. Uning murakkabligi bunday tizimni tashkil etishda namoyon bo'lsa, ikkinchidan, unga amal qilish yoki amaliy samaradorligini mustahkamlash masalasi bo'lib qoladi.

⁴⁵ Халқ депутатлари маҳаллий Кенгаши депутатини, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси депутатини ва Сенати аъзосини чақириб олиш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг қонуни // Халқ сўзи. 2005. -27 янв.

⁴⁶ Давлат хизмати персоналини бошқариш. -Т.: Академия. 2002. - Б. 17-18.

XULOSA

O'zbekistonda mustaqillik sharofati bilan bozor iqtisodiga asoslangan demokratik jamiyatni shakllantirish borasida katta imkoniyatlar vujudga keldi. Bunday imkoniyatlar, avvalo, mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hayotida milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga suyangan yangi davlatchilik asoslarining yaratilganligida namoyon bo'lmoqda. Bunday uyg'unlik jamiyatda turli madaniyatlar va manfaatlar irodasini ruyobga chiqarishga, O'zbekistonda demokratik jarayonlarni mustahkamlashga, jamiyatning barqaror va izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. Mustaqillikning 22 yilida bundayin milliy yuksalishning guvohi bo'lib turibmiz.

Ta'kidlash lozimki, siyosat va axloq muvozanatini belgilovchi mezonlar jamiyatning характери, boshidan kechirayotgan davri, hukmronlik kilayotgan sotsial-madaniy muhiti bilan bog'liq bo'lgan hodisa. Boshqacha qilib aytganda, axloqda ham siyosatda ham davrning madaniy merosi, an'analari, millatning biologik xususiyatlari hal etuvchi omil bo'lib hisoblanadi. Bunday omillarning barcha asoslari o'zbek millati uchun xos bo'lgan xususiyatlardir. Zero, millatimizning davlatchilik tarixi ildizlari nihoyatda kadimiy va baquvvat negizlarga borib bog'lanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda milliy va dunyoviy asoslarga suyangan demokratik adolatparvar jamiyat qurishning barcha asoslari mavjud.

Bugungi kunda mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarning rivojini jadallashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish kabi islohotlar chuqurlashib borilayotganligining guvohi bo'lib turibmiz. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deydi: "Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi - bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir"⁴⁷.

⁴⁷ Каримов.И.А. Бизнес бoш мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. -Т.: Ўзбекистон. 2005. - Б. 34.

Jamiyatda axloqiy qadriyatlarni ijtimoiy munosabatlar darajasiga olib chiqish, unga amal qilishning ommaviy mezonlarini ishlab chiqish demokratik tartibotlarning rivojlanishini jadallashtiradi. Fuqaro, har bir individ, guruh, qatlam va siyosiy tashkilotlarning millat oldidagi mas'ulligi, samarali faoliyati ortib boradi. Jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlar urnini bag'rikenglik, sog'lom raqobat, o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlar egallaydi. Yaxshilik, ezgulik, mezmuruvvat, fidoyilik, jasorat, vatanparvarlik kabi fazilatlarining shaxsiy faoliyat turidan ijtimoiy, ommaviy xususiyat kasb eta boshlaydi. Odamlarda ushbu sifat va xususiyatlar bilan na'muna ko'rsatish, ibrat bo'lish rag'bati ortib boradi. Ezgulik yo'lida amalga oshirilgan ishlar samarasidan baxra olishning huquqiy mezonlari vujudga keladi. Shuning uchun ham demokratik jarayonlarning amaliy harakatini siyosiy axloq nuqtai nazaridan o'rganish, siyosiy faoliyat yuritishning ommaviy madaniyatini tadbik etish muhim ilmiy izlanishlardan biri deb hisoblaymiz. Jamiyatda, adolat tamoyillari yoxud axloqiy qadriyatlar o'z-o'zicha ijtimoiy turmushning tarkibiy qismiga aylanmaydi.

Siyosat va axloq muvozanatini ta'minlashda jamiyatda siyosiy qarorlarni qabul qilish, unda fuqarolarning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki qabul qilingan qarorlarning ijrosi siyosiy jarayonlarning rivojini harakatga keltiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Davlatda qonunlarni tayyorlash, uning muhim va birlamchi ahamiyatini aniqlash va bunda milliy manfaatlarni uyg'unlashtirish fuqarolarni jamiyat vazifalarini ado etishda, umumiy safarbarlikni amalda ta'minlashda ijobiy muhit yaratadi.

Mazkur mulohazalarni umumlashtirgan holda siyosat va axloq muvozanatining ahamiyatini quyidagicha xulosa qilish mumkin.

1. Siyosiy axloq kategoriyasi siyosiy hokimiyat va siyosiy institutlar faoliyatini tashkil etishning ma'naviy poydevori bo'lib xizmat qiladi. Siyosiy axloq jamiyatda qonunlarning insonparvarligini ta'minlashning ilmiy negizlarini tashkil etib berishga qaratiladi. Axloqiy qadriyatlarning siyosiy faoliyat orqali qonunga aylanish jarayonlari tahlilini olib boradi.

2. Axloqiy qadriyatlar targ'ibot bilan emas, unga amal qilishning huquqiy mezonlarini vujudga keltirish orqali qaror toptirish. Ya'ni siyosiy axloq ijtimoiy jarayonlarning oshkoraligini ta'minlash uslublarini shakllantiradi. Agar bunday yondashuvlar joriy etilmasa, jamiyatda korrupsiya avj oladi, soliklar yashiriladi, qonunlarning ijrosi va ta'siri pasayadi, hufiyona munosabatlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga kirib boradi, hisobot va ko'rsatkichlar real hayotdan tubdan farq qila boshlaydi. Chunki, odamlar qonunni buzishdan ko'ra, el oldida sharmanda bo'lishdan ko'proq xadiksiraydi. Shu ma'noda, siyosiy axloq odamlarning hatti-harakati axloqsiz ekanligini, milliy manfaatlarga zidligini fosh qiladi.

3. O'zbekistonda erishilgan yutuklarni asrash va yanada mustahkamlash, belgilangan nazariy tamoyillarni rivojlantirish uchun siyosiy axloq qadriyatlariga zid ijtimoiy illatlarni ilmiy jihatdan o'rganish demokratik jarayonlarning barqaror hamda mustahkam taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki har qanday yuksalish va rivojlanish himoyaga muxtoj bo'ladi. Bunday xavflar, avvalo jamiyat barqarorligini, iqtisodiy, ijtimoiy yo'nalishlarni izdan chiqarishga qaratilgan g'ayriaxloqiy harakatlarda namoyon bo'ladi.

4. Davlat xizmatchilarining faoliyat nazorati va himoyasi eng muhim vazifalar katoriga kiradi. Davlat xizmati va uning mansab vazifalari ma'lum maqsadlarga ega bo'lishda ba'zan ochi^, ba'zan yopik kurash ob'ekti bo'lib kelgan. Shuning uchun davlat xizmatchilari turli nosog'lom kuchlar yoki manfaatlar kurashi markazida bo'lib, tuxmat, buxtoy, ta'kib qilish, tazyik o'tkazish kabi ba'zi tahdidlar ta'siridan xoli bo'lmaydilar. Bunday holatning mavjudligini inobatga olib davlat xizmatchilari to'g'risida qonun chiqilishini takrzo etadi. Ayni paytda, bunday qonun davlat xizmatchisi faoliyatining xizmat etikasiga muvofiqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Davlat boshqaruv idoralarida axloqiy jihatdan yuksak, salohiyatli kadrlarning ishlashi, shuningdek, mehnatini qadrlash imkoniyati vujudga kelish omillari ochib berildi.

5. Siyosatning axloqiyligini ta'minlash, uning ijtimoiy nazoratini o'rnatish jamiyatda huquqiy munosabatlarning mustahkamlanishini, ma'naviy me'yorlarning institutsional tizimini tashkil etilishini talab qiladi. Bunday tartib,

avvalo davlat xizmatchilari, parlament a'zolari, siyosiy partiya rahbarlari uchun mo'ljallanib, ular ma'lum qonunlarda o'z ifodasini topishi kerak.

Zero, shu yo'nalishdagi qonunlarning tashkil etilmasligi siyosiy jarayonlarda siyosatning ham, siyosatchining ham axloqini ulchaydigan mas'uliyat mezonlarining mavhumlashtuviga olib keladi. Bunday mavxumlik holati siyosiy jarayonlarda axloqsiz harakatlar ko'lamining kengayishiga sharoit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekistan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekistan, 1995;
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997;
3. Karimov I.A. Yangilanish va o'zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydi. Oliy Majlis sakkizinchi sessiyasidagi ma'ruzasi // Turkiston. 2002. 6 apr;
4. Karimov.I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O'zbekiston. 2005;
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008;
6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010. –B.5.
7. Karimov I. A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19- jild. – T.: O'zbekiston, 2011. – 345 b.
8. Karimov I. A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – T.: O'qituvchi, 2011. – 144 b.
9. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
10. Karimov I. A. Bizning yo'limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. – T.: O'zbekiston, 2012. – 312 b.
11. Karimov I. A. Mustaqillik – barcha ezgu reja va marralarimizning mustahkam mezonidir // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning davlat mustaqilligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. Xalq so'zi. 2013 yil 2 sentyabr.

12. Karimov I. A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. O‘zbekiston ovozi. 2013 yil 10 dekabr.
13. Karimov I. A. Tinchlik va ahillik – mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligimiz asosidir // O‘zbekiston Respublikasi I. A. Karimovning 9-may “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan so‘zlagan nutqi. O‘zbekiston ovozi 2014 yil 10 may.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // Turkiston. 2014 yil 8 fevral.

II. Me'yoriy-xuquqiy manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2003.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni // Xalq so‘zi. 2005. 27 yanv.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XI sessiya materiallari // Xalq so‘zi, 2003. -25 apr.
4. Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a'zosini chaqirib olish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonuni // Xalq so‘zi. 2005. -27 yanv.

III. Ilmiy, o‘quv adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. -T.: Ma'naviyat. 1998. -B. 34.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Xalq merosi. 1993;

3. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar 1-2 jildlar. –T.: Ma'naviyat, 1998; Behbudiy. Tanlangan asarlar. - T.: Ma'naviyat, 1999;
4. Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-xaqoyiq. Haqiqatlar qaymog'i. -T.: Kamalak, 1995;
5. Azizxo'jaev A. Mustaqillik: iztiroblar, kurashlar, quvonchlar. -T.: Akademiya, 2001;
6. al-Buxoriy. Xadis. -T.: Qomuslar bosh taxririya. 1994;
7. Aristotel. Politika. Soch.: V 4 t. T.,4. - Moskva, 1983. - S. 467.
8. Axloqi kabir. - T.: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 96.
9. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. -T.: Sharq, 2000;
10. Begmatov. A. Davlat xizmati odobi // Jamiyat va boshqaruv, 2004. - № 3. - B. 8.
11. Bekmurodov. M. O'zbek mentaliteti. //Xurriyat, 2002;
12. Davlat va huquq asoslari izohli lug'at. -T.: O'qituvchi, 1996. -B. 8.
13. Davlat xizmati personalini boshqarish. -T.: Akademiya. 2002. - B. 17-18.
14. Jakbarov. M. Komil inson g'oyasi.-T.: Yangi asr avlodi, 2002;
15. Jamiyatni erkinlashtirish va ma'naviyat. -T.: Akademiya, 2002. - B. 44
16. Jumaev O. O'zbekistonda milliy davlatchilikning rivojlanish xususiyatlari. Siyosiy fanlar nomzodi diss. avtoref.-T.: 2001;
17. Juraev T. Mintakaviy mojarolar va siyosiy yechimlar. Politologiya. -T.: 2002;
18. Ildirov U. Hozirgi zamon demokratiyalashuv jarayonlarining konseptual asoslari va mustaqil O'zbekistan tajribasi. Siyosiy. fanlar d-ri. avtoref.-T.: 2006.
19. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. -T.: Yozuvchi, 1996;
20. Munavvar Qori. Xotiralarim. -T.: Sharq, 2001;
21. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. -T.: O'zbekistan faylasuflari milliy jamiyati. 2004;

22. Nizomulmuluk. Siyosatnoma. -T.: Adolat. 1997;
23. Otamurodov S. Milliy rivojlanish falsafasi. -T.: Akademiya, 2005;
24. Otamurodov S., Ergashev I., Akromov Sh., Qodirov A. Politologiya. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston, 1998. -B.41
25. Paxruddinov.Sh. Tahdid halokatli kuch. -T.: Akademiya, 2001. - B. 48.
26. Politologiya. O'quv qo'llanma. Xalq merosi, -T. 2002.
27. Razzoliy Z.M. Kimiy saodat. -T.: Kamalak, 1994; Abduxoliq G'ijduvoni. -T.: O'zbekistan, 2003.
28. Temur. Temur tuzuklari. -T.: Adabiyot va san'at, 1996;
29. Termiziy Xoja Samandar. Dastur ul-mulk. -T.: Adabiyot va san'at, 1997. – B.63
30. Termiziy Xoja Samandar. Dastur ul-muluk: Podshoxlarga qo'llanma. Tarjima, so'z boshi, izohlar muallifi J.Esonov. -T.: Adabiyot va san'at. 1997;
31. Umarova N. Globallashuv sharoitida axborot xurujlariga karshi kurash..-T.: Akademiya, 2004.
32. Falsafa tarixi. -T.: Sharq, 2002. -B. 430.
33. Fitrat. Tanlangan asarlar. -T.: Ma'naviyat, 2000.
34. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -T.: Xalq merosi, 1994.
35. Yangi va eng yangi davr G'arbiy yevropa falsafasi. -T.: Sharq, 2002.

IV. Davriy nashrlar materiallari

1. At-Termiziy. Xadislar //Shark yulduzi. 1990, -№ 9;
2. Juraev N. Sakkiz yil sabog'i // Jahon adabiyoti, 1999. - № 9. - B. 5
3. Makiavelli N. Xukmdor // Jahon adabiyoti. T.: 2002. - № 9. -B.108.
4. Ravshanov F. Davlat xizmati XX asrda. // Jamiyat va boshqaruv. 1999. № 1-2. - B. 16.
5. Umarova Sh. Sud islohotlari yo'lida //Jamiyat boshqaruvi. 2004. - № 2. - B.
6. Xalq so'zi. 2005. 9 avgust.
7. Xalq so'zi. 2006. 9 noyabr.

V. Internet materiallari

1. www.ziyonet.uz
2. www.fikr.uz
3. www.lex.uz
4. www.arxiv.uz